



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2025



Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN
KONFERENSIYASI TO'PLAMI

2-JILD 4-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar

doi® digital object
identifier

ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX

OpenAIRE

Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025

« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2020 YIL 2-MART KUNGI «ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH YILI»DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RISIDA»GI FARMONIDA KO'ZDA TUTILGAN VAZIFALARNI IJROSINI TA'MINLASH MAQSADIDA «INNOVATIVE WORLD» MCHJ TOMONIDAN TA'SIS ETILGAN «ORIENTAL JOURNAL ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY JOURNAL (OJAMR)» ILMIY-USLUBIY JURNALINING (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKASIYALARNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGINING 138572-SONLI GUVOHNOMA HAMDA ISSN 3030-3079) "ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI" NOMLI ILMIY, MASOFAVIY RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ONLINE KONFERENSIYASINI E'LON QILADI.

KONFERENSIYA TO'PLAMI ZENODO, OPEN AIRE, OPEN ACCESS VA INTERNET ARCHIVE BAZALARIDA INDEKSLANADI. KONFERENSIYA TO'PLAMIGA DOI RAQAMI BERILADI.

KONFERENSIYA TO'PLAMIGA QUYIDAGI YO'NALISHLAR BO'YICHA MAQOLALAR QABUL QILADI:

1. ANIQ FANLAR
2. TABIIY FANLAR
3. TEXNIKA FANLARI
4. PEDAGOGIKA FANLARI
5. IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR
6. TIBBIYOT FANLARI
7. IQTISOD FANLARI
8. QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

ESLATMA! KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMIGA KIRITILGAN MAQOLALARDAGI RAQAMLAR, MA'LUMOTLAR HAQQONIYLIGIGA VA KELTIRILGAN IQTIBOSLAR TO'G'RILIGIGA MUALLIFLAR SHAXSAN JAVOBGARDIRLAR.

ТИПОЛОГИЯ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В РУССКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ

Мамбетов Сердар Ахмедович

Преподаватель кафедры русского языка и литературы, Нукусский
государственный педагогический институт имени Ажинияза

Аннотация. В статье рассматривается система прилагательных в русском и каракалпакском языках, проводится их типологическое сопоставление. Сравнительный подход позволяет глубже понять специфику грамматического строя русского и каракалпакского языков и их общие типологические черты.

Ключевые слова: прилагательное, типология, русский язык, каракалпакский язык, грамматика, лексико-грамматический разряд.

Annotation. The article examines the system of adjectives in the Russian and Karakalpak languages, and their typological comparison is carried out. The comparative approach allows for a deeper understanding of the specifics of the grammatical structure of the Russian and Karakalpak languages and their common typological features.

Keywords: adjective, typology, Russian language, Karakalpak language, grammar, lexico-grammatical category.

Прилагательное является одной из ключевых частей речи, отражающих качественную характеристику предмета, его признак или принадлежность. Несмотря на универсальность данной категории, ее грамматические особенности в разных языках существенно отличаются. Русский язык, как представитель славянских языков, и каракалпакский язык, относящийся к тюркской группе, демонстрируют как общие, так и специфические черты в системе прилагательных.

Лексико-грамматические разряды прилагательных

В русском языке прилагательные делятся на три основных разряда:

1. Качественные (красивый, быстрый, высокий) — обозначают непосредственный признак предмета, имеют степени сравнения.
2. Относительные (деревянный, зимний, городской) — указывают на отношение к предмету или явлению, степеней сравнения не имеют.
3. Притяжательные (отцов, мамин, волчий) — выражают принадлежность предмета лицу или животному.

Несомненным специфическим признаком качественных прилагательных также служит их способность образовывать абстрактные существительные с продуктивным суффиксом – *ость*, – *есть*; непродуктивными суффиксами – *от(а)*, – *изн(а)*, – *ин(а)* или безаффиксным способом: аккуратность,

гуманность, верность, задумчивость, ловкость, молодость, обширность, певучесть, густота, краснота, чистота, глубина, ширина, толщина, крутизна, желтизна, голубизна, богатство, лукавство, одиночество, синь, тишь, удаль.

Притяжательные прилагательные в каракалпакском языке также выражают принадлежность, как в примерах *atalıq* (материнский), *atalıq* (отцовский), *qarındas* (сестринский). Эти прилагательные часто образуются с помощью суффиксов *-lıq*, *-lik*, *-law*, *-lew*, аналогично относительным прилагательным. Притяжательные прилагательные в каракалпакском языке склоняются, но склонение может иметь некоторые отличия по сравнению с русским языком. Например, они могут иметь определенные формы для различных падежей, но их использование может быть менее гибким, чем у русских притяжательных прилагательных.

Еще одной особенностью качественных прилагательных служит то, что они могут иметь производную (беззаботный, общительный, разумный) или непроизводную основу (бодрый, веселый, прочный, важный, ровный, богатый) [Галкина-Федорук 2009, с. 254-256].

Качественные прилагательные легко образуются адъективные словообразовательные дериваты, выражающие различные «степени качества»: старенький поезд, большущий кусок пирога.

Таким образом, к качественным относятся прилагательные, обозначающие признаки, свойства и качества предметов, воспринимаемые непосредственно и являющиеся их прямыми названиями.

Специфическими признаками качественных прилагательных являются: непроизводность, наличие полной и краткой формы, возможность образования степеней сравнения и форм субъективной оценки, создание антонимических пар, способность образовывать абстрактные существительные и наречия на *-o*, *-e*, способность сочетаться с наречиями степеней, обозначающими меру признака.

В соответствии с «Русской грамматикой» 1980 г. относительные прилагательные отличаются тем, что передают признак через его отношение к предмету или другому признаку. То есть предмет или признак становятся мотивирующей (характеризующей) составляющей для предмета: деревянный – сделанный из дерева, летний – возникший летом, купальный – необходимый для купания и т.д.

Мотивирующей основой для выражаемых отношений могут служить различные предметы: материал (стеклянный, железный), назначение (детский, школьный), свойственность (осенний, вечерняя), принадлежность (отцов, мамин, мой).

Подобные признаки не имеют степени интенсивности и не могут передавать эмоционально-экспрессивную оценку, также не могут иметь краткую форму.

Несомненным специфическим признаком относительных прилагательных является их непрерывная пополняемость за счет других частей речи: дверной, верхний, ламповый, дубильный, плавательный, ближний, тогдашний и т.д. Исключение составляют порядковые прилагательные первый, второй и многие местоименные прилагательные, являющиеся немотивированными словами. [Русская грамматика 1980, § 1296].

В определении относительных прилагательных Шанского Н.М. они «являются не прямыми, а опосредованными названиями признаков предметов. Признак предмета в них указывает на разнообразные отношения: к предмету, к лицу, к месту, ко времени, к действию как свойству, к числу. Все относительные прилагательные обозначают постоянные, неизменяемые признаки предметов: ложки не могут быть более или менее деревянными, а сок наиболее березовым» [Шанский 1987, с. 122].

Что в целом соответствует представленному в «Русской грамматике» определению относительных прилагательных.

Список использованной литературы:

1. Шанский Н. М. Курс современного русского языка: Лексикология. – М.: Высшая школа, 1987. – 320 с.
2. Галкина-Федорук Е. М. Очерки по стилистике русского языка. – М.: Академия, 2009. – 432 с.
3. Русская грамматика: В 2 т. – М.: Наука, 1980.

FANTASTIKA VA REALISTIK TASVIR SINTEZI

Nurmuhammad Azizov

Andijon davlat universiteti
katta o'qituvchisi, f.f.b.f.d., (PhD)

Annotatsiya: Maqolada fantastika istilohining turli talqinlari xususida fikr yuritilib, uning badiiy asardagi turfa poetik funksiyalari yozuvchi Omon Muxtorning "Ming bir qiyofa" romani tahlili asosida yoritilgan. Shuningdek, fantastika va realistik tasvir sinteziga alohida urg'u berilib, ramziy obrazlar funksionalligi, talqinlar xilma-xilligi masalasiga to'xtalangan.

Kalit so'zlar: fantastika, xayolot, realizm, ramziy obraz, talqin.

Adabiyotshunos N.D.Tamarchenko tomonidan tayyorlangan adabiy lug'atda fantastikaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Fantastika (yun. rhantastike – "tasavvur qilish san'ati") badiiy adabiyotda "mumkin bo'lgan" va "mumkin bo'lmagan" narsalar chegarasining to'liq siljishi – kombinatsiyasiga asoslangan badiiy tasvirning bir turi"¹. Lug'at muallifi bir necha olimning, jumladan, S.Todorov, Ye.Farino, Yu.Lotman singari adabiyotshunoslarning fantastika haqidagi qarashlarini ham keltirib o'tadi. Ye.Farino fantastika narsalarning fazoviy-vaqt rekombinatsiyasi "morfolik" analizini yaratadi, deb bilsa, Yu.Lotman u orqali badiiy shartlilik asosida qabul qilingan me'yorlarning, haqqoniylik prinsiplari bilan uyg'unlashgan poetik tasvirning yaratilishiga urg'u beradi². O'zbek tilining izohli lug'atida "Fantastika (yun. rhantastike – xayol qilish san'ati, qobiliyati) xayolda, tasavvurda tug'ilgan, g'aroyib, g'ayritabiiy hodisa, obraz va sh.k. hamda ularning xayoliy tasviri; shunday obrazlar tasvirlangan badiiy ijod turi, janr" ko'rinishida tor va keng ma'noda qo'llanilishi uqtiriladi³. Professor D.Quronov boshchiligidagi yaratilgan "Adabiyotshunoslik lug'ati"da esa ushbu istiloh quyidagicha izohlangan: "Fantastika (yun. rhantastike – taxayyul san'ati) – haqiqatda sodir bo'lmagan, taxayyul kuchi bilan tasavvurdagina yaratilgan narsa-hodisalar tasviri, shunga asoslanuvchi adabiy asarlar jami. <...> Ayni chog'da fantastika faqat xayolot mahsuli emas, uning zahirida mavjud voqelikning izlari sezilib turadi, zero, xayol shu mavjudlikdan kuch olgan holda parvoz qiladi"⁴. Shu bilan birga, mualliflar badiiy-estetik tafakkurdagi yangilanishlar barobarida

¹ Поэтика: словарь актуальных терминов и понятий / [гл. науч. ред. Н.Д. Тамарченко]. — М.: Издательство Кулагиной; Intrada, 2008. — С.279.

² Yuqoridagi manba. — B.279.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли, IV жилд. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти, 2008. — Б. 325.

⁴ Куронов Д, Шералиева М, Мамажонов З. Адабиётшунослик луғати. — Тошкент: Akademnashr, 2013. — Б.343.

fantastikaning o'рни va ahamiyati, vazifalari o'zgarib borgani, qadim ajdodlarimiz tomonidan fantastik obrazlarni shartli obraz emas, ayni haqiqat o'laroq tushunilgani, keyinroq – xalq og'zaki ijodidayoq uning yordamchi unsur sifatida namoyon bo'lganini ham qayd etadi⁵. E'tibor bersak, fantastikaga oid ta'riflarning barida taxayyulning yetakchiligi alohida urg'ulanmoqda. Biz uchun muhimi, hozirga kelib fantastikaga shartli obrazlilik, badiiy vosita deb qarash tamoman barqarorlashgan bo'lib, shunga ko'ra, biz ham fantastikani "muallif badiiy niyatini amalga oshirish, muayyan badiiy-estetik maqsadga erishish" vositasi sifatida tushunamiz.

"Ming bir qiyofa" romanining birinchi hikoyati realistik tasvir – qahramonning bemahalda ziyofatdan qaytish lavhasi bilan boshlanadi. Kutilmaganda paydo bo'lgan haydovchisiz avtobusni aytmaganda, ilk hikoyatda hayot haqiqatiga zid keladigan boshqa tasvir uchramaydi. Yapasqi shaklda ekani, mustahkam qopqalari, yumshoq o'rindiqlari mazkur detalni real tasavvur qilish imkonini bersa-da, haydovchisiz boshqarilayotgani bois (garchi hozirda haydovchisiz boshqariladigan avtobus haqiqatga aylanayotgan bo'lsa ham) fantastik xususiyat kasb etadi. Qahramonining ayni manzarani ko'rgan paytdagi holatini muallif quyidagicha izohlaydi: "Boshqa odam bunday sharoitda qo'rqqanidan o'zini yo'qotib, ayyuhannos solishi mumkin edi. U esa, tabiatan ancha bosiq, dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqavermaydigan kishi bo'lgani, buning ustiga yaxshigina kayfi borligidan pinagini ham buzmad⁶". Abdulla Hakim tushgan vaziyat – fantastik holat bizni obrazning xarakter xususiyatlari bilan yaqindan tanishtiradi. Qahramon avtobusga chiqqan ilk lahzalarda muallif tomonidan berilgan xarakteristika voqealar davomida uning o'zini tutishi, xatti-harakatlari, shuningdek, farishtalarning "Sen oqimga tushgan xas eding, oqim qayoqqa olib borsa, ketaverarding"⁷ degan ayblovida ham o'z tasdig'ini topadi.

Adabiyotshunos Ye. Волощук "temir yo'l obrazida insonning erksizligi, uning texnika botinida yashirin kuchga tobeligi g'oyasi mavjud"⁸ deb hisoblaydi. Darhaqiqat, shunday. Ma'lum bir izdangina yurishga majbur poyezd va tramvayni inson erksizligi ramzi sifatida talqin qilish keng ommalashgan. Omon Muxtor romanidagi avtobus semantik jihatdan poyezd motivi bilan bir uyani tashkil etadi, ikkisi ham ulov (transport vositasi) o'laroq odamlarni bir makondan o'zga makonga olib boradi. Bu ma'noda avtobus ham, poyezd ham bitta invariant motivning variantlari sanalishi kerak. Biroq

⁵ Yuqoridagi manba. – B.344.

⁶ Мухтор О. Минг бир кийфа // Китобда: Мухтор О. Тўрт томон қибла. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 11.

⁷ Yuqoridagi manba. – B.63.

⁸ Волощук Е. Вот как мы заблудились (Художественная реальность притчи Ф.Кафки "Железнодорожные пассажиры" в контексте развития антропоцентрической парадигмы) Визно в свит. 1998. № 2. С. 80.

Omon Muxtor romanidagi “avtobus”ning genezisi umuman ulov emas, balki insonni erkidan mahrum qilib, o‘z istaklariga bo‘ysundiruvchi ulov motiviga bog‘lanadi. Bunday motiv so‘z san‘atida juda qadim tarixiy genezisga ega: tilsim so‘z unutilgani sabab o‘zboshimcha harakatlanadigan duldul (qanotli ot) yo uchar gilam, hind eposidagi boshqaruvdan xalos bo‘lgan jang aravasi yo duo ta‘sirida chavandoziga bo‘ysunmay olib qochayotgan tulpor kabilar. Shuningdek, X.K.Andersenning mashhur “Qor malikasi” va “Qizil kovush” ertaklaridagi “chana” bilan “kovush” ham shular jumlasidan. Biri (chana) personajning qarshiligiga qaramay uni o‘zga, noma‘lum makonga olib borsa, yana biri (“kovush”) qahramonni beixtiyor raqsga tushishga majbur qiladi. Biz tekshirayotgan romanda esa texnikaning kuch-qudrati va inson erki masalasi avtobusning haydovchisiz boshqarilishi bilan fantastik tarzda tasvirlanadi. Qahramonning dastavval avtobusdagi muhitga ixtiyoriy ravishda ko‘nishiga tabiatan bosiqqligi, mastligi, qolaversa, mashinaning o‘ziga tanish yo‘ldan borayotgani sabab bo‘lsa, bir muddat o‘tgach, avtobusning notanish yo‘lga chiqib olgani, “qachonlardir ayrilgan sevgilisi”ni eslab to‘kkan ko‘z yoshlari oqibatida yurakda sodir bo‘lgan poklanish, ruhiyatida uyg‘ongan ozodlik istagini obrazni harakatga keltirgan kuch sifatida ko‘ramiz. Abdulla Hakim avtobusni boshqarishga harakat qilib, o‘z erkini qaytarishga har qancha urinsin, “boshqa bir joydan boshqarilayotgan yapasqi mashinaning telbaligiga ajablanishdan” bo‘lak iloj topa olmaydi. Mashina Abdulla Hakimni bandi etgani va Oqish-qizg‘ish bino qarshisiga keltirishi qahramonning halokati, texnik motivning yovuzlikka xizmat qilishini anglatadi. E‘tibor bering: “Hayvonlar... Urib-tepgani kam, bu xonada ham azob-uqubatga giriftor qilmoqchi! Ko‘rsatayotgan hunaringni qara-yu!.. **Odamsiz yurgizgan mashinangdan o‘rgildim**”⁹. Ko‘rib turganimizdek, personajning tutqunlikdagi o‘y-xayollarida ro‘y bergan voqea-hodisalarning bevosita haydovchisiz mashina bilan bog‘lanishi yuqoridagi qarashimizni asoslaydi. Shu o‘rinda poyezd, tramvay kabi motivlar tasvirlangan realistik asarlardan farqli ravishda avtobusning haydovchisiz ekanidan muhim estetik maqsad ko‘zlanganini aytish lozim. Agar voqeada haydovchi obrazi tasvirlanganda, qahramon, birinchi navbatda, inson omili bilan ziddiyatga kirishar, avtobusda hukmronlik qilayotgan g‘ayritabiiy kuch soyada qolib ketardi. Qolaversa, haydovchisiz avtobus bunga qadar an‘anaviy realistik romanlar yozib kelgan adibning fantastik olamga qo‘ygan ilk qadami, shuningdek, Abdulla Hakimni “oldinda bundan-da g‘aroyib hodisalar kutayotgani”dan darak va “o‘quvchini ularni qabul qilishu mag‘zini chaqishga emosional va intellektual

⁹ Мухтор О. Минг бир киёфа // Китобда: Мухтор О. Тўрт томон қибла. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 18

jihatlardan”¹⁰ tayyorlashda vosita edi. Kutilganidek, birinchi hikoyatning keyingi manzaralarida fantastika va xayolot yetakchi maqomga ko’tariladi.

Adabiyotshunos Sh.Doniyorova “Ming bir qiyofa” romanidagi birinchi manzara – “Tutqun” haqida to’xtalib, “voqea va qahramon xatti-harakati ishonarsiz ifodalangan”¹¹, deb yozadi. Matndan anglashilishicha, “ishonarsiz ifodalangan” birikmasida Abdulla Hakimning avtobusdagi holati nazarda tutilgan va biz buning personajga xos xarakter xususiyatlari, qolaversa, mastligi bilan bog’liq holda dalillanganini yuqorida aytib o’tdik. Avtobusning haydovchisiz ekanini esa folklordagi sehrli motivlar, fantastik asarlardagi g’ayritabiiy hodisalar qatorida ko’rib, eng asosiysi, muallif g’oyaviy-badiiy niyati ro’yobiga xizmat qilgan fantastik detal, ramz ekanini tushunsakkina to’g’ri qabul qilish mumkin, deb o’ylaymiz. Bizningcha, Sh.Doniyorova obrazdagi ramziy ma’no ko’lamiga yetarli e’tibor qaratmagan ko’rinadi, shu sababdanmi, avtobusning haydovchisiz ekaniga hayotiy asos qidiradi: “Fantexnika rivojlangan davrda yerdan turib oydagi fazoviy kemani bemalol boshqarayotgan inson mashinani ham shofyorsiz boshqarishi mumkin-ku! Qolaversa, bu kelajakda amalga oshishi mumkin bo’lgan xayoliy to’qima hamdir”¹².

Shu o’rinda qayd etish lozimki, Sh.Doniyorova talqinidagi kelajakda amalga oshishi mumkin bo’lgan hodisani bashorat qilish ilmiy fantastikaga xos bo’lib, fantastikaning bu turida “voqelik ilm-fan va texnika taraqqiyoti natijasi o’laroq muayyan darajada o’zgarib, g’ayritabiiy yo ilohiy kuchlar emas, balki inson tafakkur kuchi tufayli voqe bo’ladi”¹³. Bu yerda avtobusga badiiy shartlilik vositasi debgina qarash to’g’ri bo’ladi. Q.Yo’ldoshev badiiy asardagi fantastik shartlilikda tasvirga olingan hodisani o’z mantiqiy chegarasidan chiqarib yuborish uchun formal mantiqqa sig’maydigan darajaga ko’tarish ko’zda tutilishini aytadi. Fantastik shartlilikning bir qator usullari qatorida alogizm (mantiqsizlik) haqida to’xtalib, bu usulda real hayotdagi sabab-oqibat munosabatlarida mantiqiy izchillikning buzilishi, sodir bo’layotgan hodisani aql bilan izohlash, tushuntirish mumkin emasligi, ayni shu aqlga sig’maydigan voqea yoki qahramon holati, mantiqsizlik personajlar tabiati mohiyati yohud tasvirga olingan hayotiy hodisa ma’nosini ochishga xizmat qilishini

¹⁰ Йўлдошев Қ. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент: Kamalak, 2016. – Б.23.

¹¹ Дониёрова Ш. Янги талқинлар. [Интернет ресурс]. URL: <https://saviya.uz>. (Мурожаат этилган сана: 01.02.2021)

¹² Yuqoridagi manba

¹³ Куронов Д, Шералиева М, Мамажонов З. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б.344.

ta'kidlaydi¹⁴. "Ming bir qiyofa" romanini shu usul unumli qo'llanilgan romanlar qatorida keltirib o'tadi. Ko'rinadiki, romandagi haydovchisiz avtobus realistik muammo talqinida yordamchi maqomida, badiiy vosita xolos. D.Quronov haydovchisiz avtobus ijodkor xayoloti yaratgan taqdir ramzi ekanini, undan qochib qutilish ham, boshqa tomon burish ham bandaning ixtiyorida emasligini yozadi¹⁵. Masalaga yuqorida keltirilgan qarashlar bilan yondashsak, Sh.Doniyorova talqinidagi "ishonarsiz" degan baho o'zini oqlamaydi. Tadqiqotchi O'.Nazarov esa "Ming bir qiyofa"dagi ramziylik, xususan, haydovchisiz avtobus obraziga to'xtalib, quyidagicha fikr yuritadi: "Asar ramziylik asosiga qurilar ekan, buni birinchi hikoyatda tasvirlangan "haydovchisiz yo'lga chiqqan avtobus" voqeasi misolida ko'rish mumkin. Ushbu voqeani mutolaa qilgan zukko kitobxon unda majoziylik yaqqol ufurib turganini ilg'ay oladi. Balki bu xayolot, balki bu yozuvchining orzusi bo'lsa ham ajab emas"¹⁶. O'.Nazarov obrazning majoziyligi, bu muallif xayoloti mahsuli ekanini qayd etish bilan cheklansa, bizningcha, yondashuv to'g'ri bo'lardi. Ammo uning "balki bu yozuvchining orzusi bo'lsa ham ajab emas" degan farazi badiiy matndan o'sib chiqmagani bois e'tiroz uyg'otadi. Yuqorida to'xtalganimizdek, qahramonni erkdan mahrum qilib, o'z istaklariga bo'ysundirgan, uni yovuzlar qo'lga topshirgan haydovchisiz avtobusni ijodkor orzusi sifatida talqin qilish mantiqan to'g'ri emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Поэтика: словарь актуальных терминов и понятий / [гл. науч. ред. Н.Д. Тamarченко]. — М.: Издательство Кулагиной; Intrada, 2008. — 358 с.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли, IV жилд. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти, 2008. — 672 б.
3. Қуронон Д, Шералиева М, Мамажонов З. Адабиётшунослик луғати. — Тошкент: Akademnashr, 2013. — 406 б.
4. Мухтор О. Тўрт томон қибла: Уч романдан иборат Шарқ дафтари: (Трилогия) — Тошкент: Шарқ, 2000. — 432 б.
5. Волощук Е. Вот как мы заблудились (Художественная реальность притчи Ф.Кафки "Железнодорожные пассажиры" в контексте

¹⁴ Йўлдошев Қ. Бадий таҳлил асослари. — Тошкент: Kamalak, 2016. — Б. 204.

¹⁵ Қуронон Д. Адабий ўйлар. — Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016. — Б. 23.

¹⁶ Назаров Ў. "Минг бир қиёфа"даги рамзлар сири. [Интернет ресурс]. URL: <https://birsafda.uz> (Мурожаат этилган сана: 26.08.2021)



- развития антропоцентрической парадигмы) Викно в свит. 1998. № 2. С. 80.
6. Йўлдошев Қ. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Kamalak, 2016. – 306 б.
 7. Дониёрова Ш. Янги талқинлар. [Интернет ресурс]. URL: <https://saviya.uz>.
 8. Қуронов Д. Адабий ўйлар. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016. – 110 б.
 9. Назаров Ў. “Минг бир қиёфа”даги рамзлар сири. [Интернет ресурс]. URL: <https://birsafda.uz>



O'ZBEK ADABIYOTIDA AYOL OBRAZINING BADIY TALQINI

Rajabova Ruxshona

Buxoro davlat universiteti

6-4 Uzb 25 guruhi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida ayol obrazining badiiy talqini tahlil qilingan. Mumtoz davr adabiyotidan tortib zamonaviy nasr va she'riyatgacha bo'lgan manbalarda ayollarga berilgan obrazlarning mazmun-mohiyati yoritilgan. Xususan, Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida Layli sof muhabbat ramzi sifatida, Oybek "Navoiy" romanida Guli sadoqatli va mehribon ayol timsolida, O'tkip Hoshimov "Dunyoning ishlari" asarida esa ona obrazi fidoyilik va sabr ramzi sifatida ko'rib chiqilgan. Erkin Vohidov va Zulfiya Mo'minova she'riyatida esa ayollarning ma'naviy kuchi, sabri va halolligi ulug'langan. Maqolada turli davrlardagi ayol obrazi o'zgarishlari va ularning umumiy barqaror xususiyatlari ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ayol obrazi, o'zbek adabiyoti, muhabbat, fidoyilik, ona, sabr, mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiyot.

Аннотация. В данной статье рассматривается художественная интерпретация образа женщины в узбекской литературе. Проанализированы произведения от классического периода до современной прозы и поэзии. В частности, в поэме Алишера Навои «Лейли и Меджнун» Лейли изображена символом чистой любви, в романе Айбека «Навои» Гули представлена как преданная и любящая женщина, а в произведении Уткира Хошимова «Дела земные» образ матери раскрывается как символ самоотверженности и терпения. В поэзии Эркина Вохидова и Зульфии Муминовой прославляется духовная сила, стойкость и честность женщин. В статье подчёркивается, что несмотря на различия в интерпретации в разные эпохи, основные характеристики женского образа остаются неизменными.

Ключевые слова: женский образ, узбекская литература, любовь, самоотверженность, мать, терпение, классическая литература, современная литература.

Abstract. This article analyzes the literary interpretation of the female image in Uzbek literature. The study covers works ranging from classical literature to modern prose and poetry. In Alisher Navoi's epic *Layli and Majnun*, Layli is portrayed as a symbol of pure love; in Oybek's novel *Navoi*, Guli embodies loyalty and compassion; while in O'tkip Hoshimov's *The Affairs of the World*, the image of the mother is depicted as a symbol of self-sacrifice

and patience. In the poetry of Erkin Vohidov and Zulfiya Mo'minova, women's spiritual strength, resilience, and honesty are glorified. The article concludes that although the portrayal of women changes across literary periods, the core qualities of the female image remain stable.
Keywords: female image, Uzbek literature, love, devotion, mother, patience, classical literature, modern literature.

Kirish. O'zbek adabiyotida "ayol" obrazi eng muhim, ko'p qirrali va barqaror mavzulardan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Ayol timsoli asrlardan buyon nafaqat go'zallik va muhabbatning, balki fidoyilik, sabr, sadoqat va mehrning ramzi sifatida yoritilib kelinadi. Turli davr adabiyotida ayollarga bo'lgan qarashlar hamda ularning jamiyatdagi ijtimoiy va ma'naviy o'rnini badiiy asarlarda o'ziga xos tarzda ifoda etilgan. Shu bois, o'zbek adabiyoti tarixini tahlil qilishda ayol obrazining badiiy talqinini alohida ilmiy o'rganish muhim hisoblanadi.

O'zbek mumtoz adabiyotida ayol obrazi, avvalo, muhabbat va poklik timsoli sifatida gavdalanadi. Jumladan, Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida Layli obrazini sof muhabbatning ramzi tarzida tasvirlaydi. Laylining go'zalligi va pokligi Majnun qalbida cheksiz ishqni uyg'otadi. Ushbu obraz orqali inson qalbidagi eng nozik tuyg'ularning badiiy ifodasi yaratilgan.

Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida Layli obrazini sof muhabbatning ramzi sifatida tasvirlaydi. Laylining pokiza muhabbati Majnunni ilohiy ishqqa muhtalo etadi. Dostonning:

*"Majnun qildi dard ila bemor,
Bir visoling ilinjida beqaror."*

misralari orqali ayolning go'zalligi va samimiyligi inson qalbini butkul zabt etuvchi kuch sifatida gavdalanadi. Demak, mumtoz adabiyotda ayol obrazi ko'proq go'zallik va poklik bilan uyg'un holda berilgan.

Keyingi davrlarda, xususan sovet adabiyoti namoyandalarining asarlarida ayol obrazi ijtimoiy hayotdagi faol ishtirokchi, vafodor inson va ma'naviy barkamollik timsoli sifatida talqin qilinadi. Masalan, Oybekning "Navoiy" romanida Guli obrazi mehribon va sadoqatli ayol sifatida gavdalanadi. Bu obraz orqali oddiy xalq vakilasining ma'naviy kuchi hamda saroy ayollaridan farqli o'laroq, halollik va samimiylikka asoslangan hayoti tasvirlangan.

XX asr o'zbek she'riyati ham ayol obrazining turli qirralarini badiiy talqin etishda muhim manba hisoblanadi. Erkin Vohidov she'riyatida ayollarning sabr-toqati, aqli va zakovati ulug'lanadi. Shoirning "Ayol – hayotning mohiyati" degan satrlari ayol timsolining jamiyat va hayot uchun beqiyos ahamiyatini yuksak falsafiy ma'noda ifodalaydi.

Erkin Vohidov ijodida ayol hayotning mazmuni, mehrning manbai sifatida ulug'lanadi. Uning:

*“Ayol – hayotning mohiyati,
Ayol – mehrning manbai.”*

misralari ayol obrazining umuminsoniy qadrini ifoda etadi.

Adabiyotda “ona” obrazi ham doimiy va markaziy mavzulardan biridir. Oʻtkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida ona timsoli hayotiy voqealar orqali tasvirlanib, farzand uchun fidoyilikning badiiy namunasi yaratiladi. Muallif ayolga nom bermagan boʻlsa-da, bu xususiyat barcha onalarga xos fazilatlar sifatida umumlashtirilgan.

Oʻtkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida ona obrazi turli qirralarda tasvirlangan. “Gilam paypoq” hikoyasida farzandi uchun jonini ham ayamaydigan ona timsoli yaratiladi:

*“Ona qordan qoʻrqmadi, sovuqdan qoʻrqmadi. Uning yuragini faqat
farzandining isi qizdirardi.”*

Yozuvchi onaga ism bermagan. Bu orqali muallif tasvirlangan fazilatlarini bitta shaxsga xos emas, balki barcha onalarga xos umumiy xususiyat sifatida koʻrsatishga intilgan.

Shoira Zulfiya Moʻminovanning “Ayol” sheʼrida esa ayollarning bardoshi, halolligi va mehribonligi ulugʻlanadi. Shoira “Bolasiga chopgan ohusan” misrasi orqali ona timsolini badiiy umumlashtirib, uni milliy adabiyotimizdagi boshqa ona obrazlari bilan hamohang tarzda yoritadi. Shu bilan birga, Chingiz Aytmatovning “Oq kema” asaridagi bugʻu ona obrazi ham insoniyatdagi ona timsolining ramziy talqini sifatida ilmiy qiyosda tahlil qilinishi mumkin.

Shoira Zulfiya Moʻminovanning “Ayol” sheʼrida esa ona obrazi bardosh va halollik timsoli sifatida tasvirlanadi:

*“Ezgulikni emizgan oʻzing,
Halollikda tanhosan, toqsan.
Bolasiga chopgan ohusan,
Sen ‘Onasan’, shu bilan haqsan.”*

Bu misralarda ayol – ayniqsa ona obrazining hayotiy va maʼnaviy buyukligi taʼkidlanadi.

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek adabiyotida ayol obrazi turli davrlarda turlicha talqin qilingan boʻlsa-da, uning asosiy badiiy mohiyati – sadoqat, sabr, mehr, goʻzallik va bunyodkorlik timsoli sifatida doimo barqaror qolgan. Mumtoz adabiyotda u muhabbat va poklik ramzi sifatida, sovet davri adabiyotida esa ijtimoiy faol shaxs sifatida tasvirlangan. Zamonaviy adabiyotda esa ayol obrazi millatning maʼnaviy kuchi va jamiyat taraqqiyotining tayanch manbai sifatida ulugʻlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi

adabiyot va san'at nashriyoti.

2. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1998.

3. Erkin Vohidov. She'rlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.

4. O'zbek adabiyot tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.



ЛОГИСТИКА ХИЗМАТЛАРНИ БОШҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Хомидов Хожиакбар Адхамович

Андижон давлат университети мустақил изланувчиси

Аннотация: Мазкур мақолада мултимодал транспорт тизими орқали логистика хизматлари самарадорлигини ошириш йўллари, уларнинг иқтисодий афзалликлари, тизимни такомиллаштириш омиллари ҳамда Ўзбекистон шароитидаги амалий ечимлар таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: логистика, транспорт, иқтисодиёт, савдо, мултимодал, модернизация.

Замонавий иқтисодиёт шароитида логистика тизимининг самарадорлиги мамлакатнинг транспорт инфратузилмаси, ташқи савдо фаолияти ва ички бозор интеграциясининг асосий омилларидан бири ҳисобланади. Айниқса, глобал рақобат кучайиб бораётган ҳозирги даврда юкларни тез, арзон ва ишончли етказиб бериш имконини берувчи мултимодал транспорт тизими логистика хизматларини ривожлантиришда стратегик аҳамият касб этмоқда. Мултимодал ташиш — бу бир нечта транспорт турлари (темир йўл, автомобиль, ҳаво, денгиз ва дарё)нинг ягона логистика занжирида узвий ишлашини таъминловчи мураккаб тизим бўлиб, у вақт ва харажатларни оптималлаштиришга хизмат қилади.

Ўзбекистон учун бу масала ниҳоятда долзарбдир, чунки мамлакатнинг географик жойлашуви — йирик транзит йўлаклар чоррахасида жойлашганлиги — мултимодал транспорт тизимини ривожлантириш учун табиий имкониятлар яратади. Шу сабабли сўнгги йилларда “Янги Ўзбекистон — логистика марказига айланиш” тамойили асосида темир йўл ва автомобиль транспорти инфратузилмаси модернизация қилинмоқда, халқаро транспорт коридорлари (“Тошкент–Андижон–Ўш–Иркештом”, “Транс-Афғон йўлаги”, “Хитой–Қирғизистон–Ўзбекистон”) фаол ривожлантирилмоқда.

Мултимодал транспорт тизими — бу юкларни бир нечта транспорт турлари орқали ягона ташиш ҳужжати ва логистика занжири асосида етказиб беришни назарда тутувчи интеграциялашган транспорт тизимидир. Халқаро амалиётда “multimodal transport” атамаси Халқаро транспорт форумлари ва БМТнинг Савдо ва транспорт бўйича Конференцияси (UNCTAD) томонидан қўлланилади ҳамда юк

ташишнинг мураккаб, лекин самарали моделларидан бири сифатида баҳоланади. Унинг моҳияти шундаки, юкни жўнатувчи фақатгина бир оператор (мультимодал оператор) билан шартнома тузади ва юк бутун йўл бўйича унинг масъулияти остида ҳаракатланади. Мультимодал транспорт тизими логистика фанининг асосий йўналишларидан бири бўлиб, у “бирлаштирилган транспорт тизимлари” назариясига таянади. Бу назарияга кўра, транспортнинг ҳар бир тури (темир йўл, автомобиль, денгиз, ҳаво, дарё) ўзининг афзалликларига эга ва уларни мувофиқлаштирилган ҳолда фойдаланиш орқали умумий логистика самарадорлигига эришилади. Масалан, темир йўл транспорти — узоқ масофага юк ташишда арзон ва барқарор, автомобиль транспорти — манзилга етказишда енгил ва тезкор, ҳаво транспорти — юқори қийматли ва тез бузиладиган товарлар учун қулай, денгиз транспорти — халқаро савдо учун энг арзон вариант ҳисобланади.¹⁷

Мультимодал ташишнинг илмий-амалий назарияси “комплементар транспорт тизимлари” ғоясига асосланади, яъни транспорт турлари бир-бирини тўлдириши лозим. Бу орқали транспорт тизимидаги умумий харажатлар 15–30% гача қисқариши, вақт тежалиши эса 25–40% гача ошиши мумкин. Мультимодал транспорт тизимининг ҳуқуқий ва меъёрий асослари халқаро миқёсда аниқ белгилаб берилган. Ушбу соҳани тартибга солувчи асосий халқаро ҳужжатлар қуйидагилар ҳисобланади:

- 1980 йилдаги БМТнинг “Халқаро мультимодал ташиш тўғрисидаги конвенцияси” — ушбу ҳужжат мультимодал операторнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини, ташиш ҳужжатлари шаклини ва юкларнинг хавфсизлигини таъминлаш механизмларини белгилайди;
- 1991 йилдаги Европа Иқтисодий комиссиясининг “Транспорт ва логистика интеграцияси концепцияси” — транспорт турлари ўртасидаги мувофиқлик, инфратузилма стандартлари ва ахборот алмашинуви тартибини белгилайди;
- 2008 йилда қабул қилинган Халқаро транспорт ва логистика хавфсизлиги стандарти — логистика занжирларида хавфсизлик бошқарув тизимини жорий этишни кўзда тутди.¹⁸

Ўзбекистон учун мультимодал транспорт тизимини ривожлантириш стратегик аҳамиятга эга. Мамлакатнинг географик жойлашуви — Марказий Осиё транзит йўлаклари чоррахасида жойлашганлиги — уни минтақавий логистика марказига айлантириш

¹⁷ Балабанов И.Т. “Транспортная логистика.” — Москва: Финансы и статистика, 2019.

¹⁸ United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). “Convention on International Multimodal Transport of Goods”. — Geneva, 1980.

имконини яратади. Жаҳон банкининг 2023 йилдаги маълумотларига кўра, мамлакатнинг умумий юк айланмаси **12,6 миллиард тонна-километр**ни ташкил этган, шундан 70–75 фоизи темир йўл транспорти ҳиссасига тўғри келади. Бу ҳолат темир йўл транспортининг устуворлигини кўрсатади, бироқ автомобиль ва ҳаво транспортининг паст улуши мултимодал интеграциянинг чекланганлигини англатади.

1-жадвал

SWOT таҳлил: Ўзбекистонда мултимодал транспорт тизими¹⁹

Тоифа	Асосий жиҳатлар
S — Кучли томонлар	• Геостратегик жойлашув (Марказий Осиё транзит чорраҳаси) • Ривожланган темир йўл инфратузилмаси (75% юк ташиш ҳажми) • Давлат стратегияси ва халқаро лойиҳалар (“Хитой–Қирғизистон–Ўзбекистон”, “Транс-Афғон йўлаги”)
W — Заиф томонлар	• Автомобиль ва ҳаво транспорти интеграцияси паст • Божхона жараёнларида бюрократия • Рақамли бошқарув ва ягона ахборот тизимининг етишмаслиги
O — Имкониятлар	• IoT, AI ва блокчейн технологияларини жорий этиш • Давлат-хусусий шериклик асосида логистика марказларини кенгайтириш • Экспорт ва транзит салоҳиятини ошириш
T — Хавф-хатарлар	• Минтақадаги рақобатчи транзит йўлаклар (Қозоғистон, Туркменистон) • Сиёсий ва иқтисодий беқарорлик • Инфратузилма инвестицияларининг етишмаслиги

Юқорида келтирилган жадвал таҳлилидан кўриниб турибдики, Ўзбекистонда мултимодал транспорт тизимини ривожлантириш учун муҳим устунликлар ва истиқболли имкониятлар мавжуд. Аввало, мамлакатнинг геостратегик жойлашуви — Марказий Осиё транзит йўлакларининг чорраҳасида бўлиши — логистика соҳасидаги энг катта рақобат устунлигидир. Шунингдек, темир йўл тизимининг ривожланганлиги ва халқаро лойиҳаларда фаол иштирок этилаётгани мамлакатнинг ташқи иқтисодий алоқаларини кенгайтириш имконини бермоқда. Бироқ тизимнинг заиф томонлари ҳам мавжуд. Хусусан, автомобиль ва ҳаво транспорти интеграциясининг пастлиги, божхона жараёнларидаги ортиқча бюрократия ҳамда яхлит рақамли бошқарув тизимининг йўқлиги логистика занжирининг узвийлигини таъминлашда тўсиқ бўлиб қолмоқда. Бу ҳолат юк ташиш вақти ва

¹⁹ Маълумотлар асосида муаллиф томонидан тузилган

харажатларини кўпайтириб, тизим самарадорлигини пасайтиради. Шу билан бирга, яқин йиллардаги имкониятлар жуда катта. Жумладан, IoT, sun'iy intellekt ва блокчейн технологияларини жорий этиш, транспорт турлари ўртасида маълумот алмашинувини автоматлаштириш ҳамда давлат-хусусий шериклик асосида логистика марказларини кенгайтириш мамлакат логистика салоҳиятини оширишда ҳал қилувчи омил бўлади.

Ўзбекистон шароитида мултимодал транспорт тизимини ривожлантириш нафақат логистика соҳасида, балки иқтисодиётнинг барча тармоқларида ижобий натижа беради. Мамлакатнинг геостратегик жойлашуви, ривожланган темир йўл инфратузилмаси ва халқаро транспорт йўлакларига чиқиш имкониятлари бу йўналишдаги энг катта устунликлар ҳисобланади. Шу билан бирга, тизимдаги айрим муаммолар — транспорт турлари ўртасидаги интеграциянинг етарли эмаслиги, ахборот тизимларининг заифлиги, божхона жараёнларидаги ортиқча бюрократия — самарадорликни чеклаб турибди. Шунинг учун, келгусида логистика хизматларини такомиллаштириш мақсадида қуйидаги вазифаларни амалга ошириш муҳим аҳамиятга эга:

- транспорт инфратузилмасини рақамлаштириш ва ягона ахборот платформасини яратиш;
- давлат-хусусий шериклик асосида мултимодал логистика марказларини ташкил этиш;
- IoT, sun'iy intellekt ва блокчейн технологияларини жорий этиш орқали бошқарув самарадорлигини ошириш;
- халқаро стандартларга мос божхона ва лицензиялаш тизимини шакллантириш;
- “яшил логистика” тамойилларини амалга ошириш орқали экологик барқарорликни таъминлаш.

Хулоса қилиб айтганда, мултимодал транспорт тизимини жадал ривожлантириш Ўзбекистоннинг халқаро савдо айланмасини кенгайтириш, экспорт ва транзит салоҳиятини ошириш ҳамда иқтисодиётни глобал логистика тизимига интеграция қилишда ҳал қилувчи омил бўлиб хизмат қилади. Бу тизим мамлакатни минтақавий транспорт марказига айлантириш билан бирга, барқарор иқтисодий ўсишга кенг йўл очади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Балабанов И.Т. “Транспортная логистика.” — Москва: Финансы и статистика, 2019.



2. Harrison A., van Hoek R. "Logistics Management and Strategy." — 6th Edition. Pearson, 2021.
3. Waters D. "Global Logistics: New Directions in Supply Chain Management." — Kogan Page, 2018
4. Masood, T. & Yang, J. "Optimizing Multimodal Transport Systems Using Deep Reinforcement Learning." Journal of Transport Geography, Vol. 98, 2021
5. <https://lex.uz/>



TIL BIRLIKLARINING KOMMUNIKATIV SAMARADORLIGINI
TA'MINLASHDA PRAGMATIKANING O'RNI

Suvanov Ilyos Diyarovich

Qarshi davlat universiteti
Xorijiy tillar fakulteti, o'qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada asosiy maqsad Nutq aktlari, presuppozitsiya va implikatura kabi pragmatik hodisalar orqali talabalar nutqini real muloqotga yaqinlashtirish masalasi yoritiladi, uning mohiyatini anglash, lingvistik pragmatikaning umumnazariy masalalarini anglash; pragmalingvistika sohasiga oid ba'zi masalalar.

Kalit so'zlar: pragmatik pedagogika, lingvistik pragmatika, pragmatizm, kasbiy taraqqiyot, hayotiy vazifalar, kompetensiya, shaxsiy tajribalar.

Аннотация. Основная цель данной статьи — осветить проблему приближения речи студентов к реальному общению посредством прагматических феноменов, таких как речевые акты, пресуппозиция и импликатура, понять их сущность, разобраться в общетеоретических вопросах лингвистической прагматики; некоторых вопросах, связанных с областью прагмалингвистики.

Ключевые слова: прагматическая педагогика, лингвистическая прагматика, прагматизм, профессиональное развитие, жизненные задачи, компетентность личный опыт.

Annotation. The main goal of this article is to highlight the problem of bringing students' speech closer to real-life communication through pragmatic phenomena such as speech acts, presupposition, and implicate, to understand their essence, and to delve into the general theoretical issues of linguistic pragmatics and some issues related to the field of pragma linguistics.

Key words: pragmatic pedagogy, linguistic pragmatics, pragmatism, professional development, life tasks, competence, personal experiences.

KIRISH. Pedagog tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o'quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo'sinlarini belgilab beradi. Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish Pedagogning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash Pedagogikanidagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatga doyr qarash va ko'nikmalarning

shaxs sifa-tiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi. Insonlar ora-sida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indi-sini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat o'qitish tushunchasini ifoda etadi. O'qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi. Tarbiyalash va o'qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatleri shakllantiriladi. Shaxe tarbiyalash va o'qitish orqali o'zida oldin bo'lmagan ma'naviy-intellektual sifatlarga ega bo'ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzluksiz davom etadi va uning rivojlanishiga omil bo'ladi.

ASOSIY QISM. Pragmatik pedagogika g'oyasiga ko'ra ta'lim oluvchilarning rivojlanishiga ko'maklashadigan barcha g'oyalar samali foydali hisoblanadi. Mazkur g'oyalar birinchi navbatda talabalarnitng pedagogik faoiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pragmatik pedagogik g'oyasiga ko'ra jamiyat hayotini tubdan o'zgartirish uchun ta'lim-tarbiya tizimini tubdan qo'zgartirish lozim. Ta'lim jarayoni shaxsni intellektual jihatdan rivojlantirishga yo'naltirilishi kerak. Chunki jamiyat hayotining rivojlanishi uchun intellektual jihatdan yetuk mutaxassislar zarur. Ular taraqqiyotga turtki berib, tendensiyalarni jadallashtiradi va ijtimoiy tajriba ko'lamini kengaytiradi. Mazkur tendensiyalar ta'lim oluvchilar faoliyatini jadallashtirish ularda kreativ fikrlashga yo'naltirishga asos bo'lishi kerak. Bilimlarni tizimli o'zlashtirish natijasida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy faollik, muvaffaqiyat qozonishga intilish, talabalar bilan hamkorlikka kirishish tajribasining tarkib toptirishi mkhti ahmiyaga ega. Shunga ko'ra bo'lajak o'qituvchilarga taqdim etiladigan bilimlar ulirni ijtimoiy pedagogik faoliyat va hayotga xizmat qiishga tayyorlashga xizmat qilishi lozim. Ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifalardan biri yoshlarga bilim berish va ularni tarbiyalash orqali ijtioy hayotga tayyorlashdan iborarit. Ta'lim oluvchilarni har tomonlama rivojlantirishda xalqning ijtimoiy tajribasi va tarixiy madaniy meros muhim o'rin tutadi. Chunki madaniy meros ta'lim oluvchilarning aqliy rivojlanishi uchun stimul vazifvasini o'taydi. Madaniy meros Talaba hamda talaba yoshlarning ijtimoiy tajribasini kengaytirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayoni xalqning ijtimoiy tajribasi bilan bir qatorda Talaba hamda talaba yoshlarnning tabiiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Chunki u ijtioy tajribani uzluksi kengaytirish va boyitishning asosiy vazifasi bo'la oladi. Talabalarga ta'limtarbiya berishda markaziy o'rinni o'qituvchi egallaydi. Shuning uchun ham pedagogik jarayon markazida o'qituvchi bilan Talaba turadi ularning hamkorligi va birgalikdagi faliyati pedagogik jarayonning pragmatik kasb etishiga ko'maklashadi.

Vilyam Kilpatrik pedagogik pragmatika doriasida loyiha metodini ishlab chiqdi. Loyiha metodi yordamida ta'lim maqsadli tarzda amalga oshiriladi. O'quv faoliyatini amalga oshirish jarayonida ta'lim oluvchilar aniq didaktik topshiriqlarni rejasini tuzadilar, talabalarning qiziqishlari va mavjud tajribasini hisobga olish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Bugungi kunda yuqori malakali pedagoglarni tayyorlashda pragmatik yondashuvdan foydalanish zaruriyati kuchaymoqda. Pragmatik pedagogika o'zida pedagogik jarayonlarni isloh qilish vazifasini mujassamlashtiradi. Pedagogikaning ushbu yo'nalishi doirasida ta'lim-tarbiyaga oid falsafiy yondashuvlar o'z ifodasini topadi. Shu bilan bir qatorda pedagogik instrumentariylar, didaktik konstuksiylar, eksprementlar nazariyasi, didaktik jarayonlar taraqqiyoti, ta'lim-tarbiyaning amaliy yo'nalishlari rivojlantirishga oid nazariyalar, talabaning faol harakatlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan o'qitish metodikalari pragmatik pedagogikaning ob'ekti hisoblanadi.

Pragmatizm pedagogikasiga oid nazariy yondashuvlar AQShda vujudga kelgan. Uning asoschisi esa Jon Dyu hisoblanadi. Pedagogik pragmatizm konsepsiyasiga oid ta'limotning asosini:

- ❖ Ta'lim oluvchilar, ularning rivojlanishi va tarbiyaviy jarayonlar tashkil etadi.
- ❖ Ta'lim oluvchilarda shaxsiy tajribani to'planishi ular shaxsiyatining shakllanishiga asos bo'lib, bunda instrumental yondashuv zarur hisoblanadi. Mazkur yondashuv ta'lim oluvchilarning to'g'ridan to'g'ri vujudga kelgan qiziqishlari va tajribalariga tayangan holda ish ko'rishni taqozo etadi.
- ❖ O'qitish ta'lim sub'ektining faoliyatiga tayangan holda amalga oshiriladi. Ushbu o'rinda ta'lim oluvchilarning o'yin hamda mehnat faoliyati hisobga olinadi. Bo'lajak o'qituvchilar esa talabalarning bunday faoliyatini tashkil etish kompetentsiyasini egallashlari lozim. Chunki Talabaning har bir harakati uning bilish faoliyatini rivojlantirish instrumentariysi sifatida namoyon bo'lishi kerak. Shuningdek mazkur instrumentariy talabalarning shaxsiy qiziqishlarini aniqlab, tabiiy imkoniyatlari va iqtidorlarini ro'yobga chiqishga xizmat qilishi lozim. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki bugungi kunda huddi shunday instrumentariyni qo'llash kompetensiyasiga yetarlicha ega emaslar.
- ❖ Bo'lajak o'qituvchilar o'quv jarayoninin talabalarda tafakkur qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltira olish kompetensiyasini egalashlari talab etilmoqda. Bu jarayonda talabalarda hayotiy vazifalarni yechish ko'nikmalarini shakllantirish, kreativ ko'nikmalarni egallash, harakat usullarini qo'llash haqidagi bilimlarini boyitish,



mustaqil bilim olish va o'z o'zini takomillashtirish usullarini o'rgatish kompetensiyasini talabalarda tizimli tarzda shakllantirishni nazarda tutish taqozo qilinmoqda.

- ❖ Umumiy o'rta ta'lim maktablarida qo'uvchilarga ta'lim-tarbiya beruvchi muhit shakllantiriladi. Bu jarayonda asosiy vazifalardan biri murakkab hayotiy hodisalarni bartaraf etish nazarda tutiladi. Ular sirasiga ularni talabalarga qulay shakllarda taqdim etish, insoniyat tajribasidagi muhim jihatlarni o'rganish uchun tanlash va talabalarga yetkazish, ijtimoiy farqlarni tenglashtirishga erishish, talabalar orasida yagona fikrni shakllantirish va ular faoliyatini muvofiqlashtirish kabilar kiradi.

Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik jarayonni tashkil etishda Talabaning qiziqishlaridan kelib chiqish tajribasiga ega bo'lishlari muhim hisoblanadi. Pedagogik jarayon Talabaning qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil etilgandagina uni hayot bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilar har bir darsni maktab hayoti bilan bog'lash tajribasiga ega bo'lishlari talab etiladi. Chunki maktab hayotida talabalarining rang barang faoliyati o'z aksini topgan bo'ladi. Ularga taqdim etiladigan topshiriqlar ham xuddi shu faoliyat bilan bog'liq holda pragmatik xarakter kasb etishiga e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Pragmatik topshiriqlarni bo'lajak o'qituvchilar turli shakllarda tuzish tajribasiga ega bo'lishlari taqozo qilinmoqda. Talabalarining faoliyati ko'pqirrali bo'lib, ularning intellektual taraqqiyotiga xizmat qilish zarurligini pragmatik topshiriqlarni tuzish jarayonida bo'lajak o'qituvchilar aniq xisobga olib bilishlari talab etiladi. Bo'lajak o'qituvchilar darslarni muayyan bir topshiriq atrofida tashkil etish kompetensiyasini egallashlari muhim ahamiyatga ega. Bunday mashg'ulotlarda talabalar birinchi navbatda pragmatik topshiriqlarni topshirish rejasini tuzish bilan shug'ullanadilar. Topshiriqlarning xarakteridan kelib chiqqan holda uni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'playdilar va ular ustida ishlash ko'nikmalarini egallaydilar. Bo'lajak o'qituvchilar pragmatik topshiriqlarni talabalarga taqdim etish tajribasini egallash jarayonida ularning qiziqishlari bilan bir qatorda yosh xususiyatlari bilan bir qatorda hisobga olish, yosh psixologiyasiga oid bilimlarni qo'llash tajribasini ham ega bo'lishlari lozim.

Talabalarga taqdim etiladigan har bir pragmatik topshiriq ularning hayotiy faoliyatini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarini takomillashtirishni nazrad tutishi lozim. Bo'lajak o'qituvchilar o'quv jarayonida talabalarga maslahatchi, yo'naltiruvchi funksiyalarini egallashlari lozim. Maktab o'quv dasturlari va darsliklarda topshiriqlar uzoq muddat qat'iylashib qolmasligi kerak. Ular ijtimoiy voqelikni hisobga olgan holda muntazam yangilangandagina pragmatik xarakter kasb eta oladi. Talabalarni qiziqishlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etish

В заключение можно сделать вывод, что своевременное создание многофункционального механизма повышения инвестиционной привлекательности стратегически важных акционерных предприятий призвано не только привлечь значительные объёмы иностранных инвестиций, но и повысить уровень корпоративной культуры и масштабы их технологической трансформации, сделав их драйверами инновационного развития Нового Узбекистана.

Список использованной литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-16 «О государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан — 2030» от 30 января 2025 года.
2. Статистический сборник Агентства по статистике при Президенте Республики Узбекистан. Т.: Статистика, 2024 год.
3. Постановление Кабинета Министров №ПКМ-166 «Об утверждении Стратегии управления и реформирования предприятий с участием государства в 2021 — 2025 годах» от 29 марта 2021 года.
4. Статистический сборник Агентства по статистике при Президенте Республики Узбекистан. Т.: Статистика, 2024 год.
5. Бутиков И.Л. Значение документов программного характера для развития отечественного фондового рынка. -Т.: Жамият ва бошқаув, №4, 2024. С. 53-55.
6. Кадыров А.М. Регулирование международной торговли и повышение экспортного потенциала Республики Узбекистан. -Т.: Издательство «Lessjn Press», 2023г. С.210-212.



Boshlang'ich ta'limda bolalar adabiyotini o'qitishda sun'iy intellektdan samarali foydalanish texnologiyalari

Majidova Zarina Farhodovna

Samarqand davlart pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida bolalar adabiyotini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullari yoritilgan. Sun'iy intellekt asosidagi o'quv dasturlari, chat-botlar, virtual o'qituvchilar va interaktiv platformalar orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkuri, o'qishga qiziqishi hamda tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada o'qituvchining raqamli kompetensiyasini oshirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish va o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o'qitish jarayonini yaratishda sun'iy intellektning o'rni ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishning dolzarbligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, boshlang'ich ta'lim, bolalar adabiyoti, raqamli ta'lim, interaktiv texnologiyalar.

Kirish

Bugungi raqamli transformatsiya davrida boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, badiiy matnni idrok etish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Bolalar adabiyoti bu jarayonda o'ziga xos ahamiyatga ega, chunki u nafaqat estetik didni shakllantiradi, balki ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari bu maqsadlarni amalga oshirishning yangi, interaktiv va individual yondashuv asosidagi imkoniyatlarini yaratmoqda.

Sun'iy intellektning ta'limdagi afzalliklari

1. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish – o'quvchining o'zlashtirish sur'ati, qiziqish sohasi va bilish darajasini tahlil qilib, shaxsiy o'quv yo'nalishini taklif etadi.

2. Ko'p kanalli ta'lim muhiti – matn, audio, video va interaktiv o'yinlar orqali bolalar adabiyoti bilan ishlashni qiziqarli qiladi.

3. Tezkor tahlil va fikr-mulohaza – o'qish tezligi, matnni tushunish darajasi, savollarga javob sifatini avtomatik baholaydi.

Foydalanishning asosiy yo'nalishlari

Intellektual o'quv platformalari: ChatGPT singari til modellari ertak yoki hikoya mazmunini sodda tilda tushuntirib, qahramonlarni tahlil qilishga yordam beradi.

Audiokitob va ovozli yordamchilar: SI asosidagi tovush sintezi matnni ifodali o'qib beradi, bolalar talaffuzini to'g'rilashga ko'maklashadi.

Interaktiv test va viktorinalar: Matnni o'qib bo'lgach, sun'iy intellekt avtomatik savollar tuzib, bolaning tushunish darajasini baholaydi.

Adaptiv tavsiya tizimlari: O'quvchining yoshiga, qiziqishiga mos yangi ertak, she'r yoki hikoyalarni taklif qiladi.

Pedagogik texnologiyalar

1. Flipped Classroom (teskari sinf): O'quvchilar uyda SI platformasida ertakni tinglaydi, sinfda esa muhokama va ijodiy topshiriqlarni bajaradi.

2. Gamifikatsiya: Sun'iy intellekt bilan ishlovchi o'yinli dasturlar orqali bolalar adabiyoti qahramonlarini jonlantirish, rolli o'yinlar tashkil etish.

3. AR/VR texnologiyalari: Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan virtual sahnalar ertak voqealarini 3D ko'rinishda jonlantiradi.

Muammolar va yechimlar

Texnik baza yetishmasligi – maktablarni zamonaviy qurilmalar bilan ta'minlash, internet tezligini oshirish zarur.

Pedagog malakasi – o'qituvchilarning sun'iy intellektdan foydalanish ko'nikmalarini oshirish bo'yicha maxsus treninglar.

Axloqiy va huquqiy masalalar – bolalar ma'lumotlarining maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha aniq reglamentlar.

Xulosa

Boshlang'ich ta'limda bolalar adabiyotini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning kitobga qiziqishini oshiradi, individual yondashuvni ta'minlaydi hamda dars samaradorligini sezilarli darajada ko'taradi. Shu bilan birga, o'qituvchining ijodkorligi, nazorati va pedagogik mahorati doimo asosiy omil bo'lib qoladi. SI – bu vosita, o'qituvchi esa jarayonning yuragi.

Adabiyotlar:

1. Karimova, D. (2023). Raqamli ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

2. Turdiyeva, M. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar. Pedagogika jurnali, №3, 45–52.

3. UNESCO (2021). Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities. Paris: UNESCO Publishing.

**XALQ PEDAGOGIKASIDA MILLIY URF-ODAT, AN'ANA VA UDUMLAR
TARBIYA VOSITASI SIFATIDAGI O'RNI**

Azimjonova Zarnigor abdunazar qizi

2-kurs talabasi, Chirchiq davlat pedagogika Universiteti

azimjonovazarnigor6@gmail.com

Annotatsiya:

Xalq pedagogikasida milliy urf-odat, an'ana va udumlar yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Ular orqali insonda vatanparvarlik, hurmat, mehnatsevarlik kabi fazilatlar shakllanadi.

Kalit so'zlar: xalq pedagogikasi, urf-odat, an'ana, udum, tarbiya, ma'naviyat.

Annotation:

In folk pedagogy, national customs, traditions, and rituals serve as important means of moral and spiritual education for the younger generation. They help develop qualities such as patriotism, respect, and diligence.

Keywords: folk pedagogy, customs, traditions, rituals, education, spirituality.

Аннотация:

В народной педагогике национальные обычаи, традиции и обряды являются важным средством духовно-нравственного воспитания молодого поколения. Через них формируются такие качества, как патриотизм, уважение и трудолюбие.

Ключевые слова: народная педагогика, обычаи, традиции, обряды, воспитание, духовность.

Kirish:

Xalq pedagogikasi har bir xalqning ma'naviy boyligi, qadriyatlari va tarbiyaviy tajribasini o'zida mujassam etgan bebaho merosdir. Unda milliy urf-odat, an'ana va udumlar yosh avlodni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Bu qadriyatlar asrlar davomida shakllanib, xalqning hayot tarzi, dunyoqarashi va axloqiy me'yorlarini ifodalaydi. Ayniqsa, o'zbek xalq pedagogikasida urf-odat va an'analar bolalarni mehnatsevarlikka, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlikka, vatanparvarlik va insonparvarlikka o'rgatishda asosiy tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Milliy urf-odat va an'analar insonning ma'naviy kamolotida, ijtimoiy hayotga moslashuvida ham beqiyos ahamiyatga ega. Ular orqali yoshlar o'z xalqining madaniy merosi bilan tanishadi, o'zligini anglaydi va milliy g'urur tuyg'usini his etadi. Shu bois, xalq pedagogikasida urf-odat va an'alarni tarbiya jarayoniga tatbiq etish nafaqat tarixiy merosni asrash, balki yosh avlodni komil inson qilib voyaga yetkazishning eng samarali yo'llaridan biridir. Bugungi globallashuv davrida ham milliy qadriyatlarni asrash va

targ'ib etish yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlashda muhim omil bo'lib qolmoqda.

Asosiy qism:

Xalq pedagogikasi bu xalqning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, donishmandligi va tarbiyaviy qarashlarini o'zida mujassam etgan boy ma'naviy merosdir. Unda milliy urf-odatlar, an'analar va udumlar yosh avlodni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashda beqiyos o'rin tutadi. Har bir xalqning urf-odat va an'analari uning tarixiy taraqqiyoti, madaniyati hamda turmush tarzini aks ettiradi. Shu bois, bu qadriyatlar orqali bolalarga nafaqat odob-axloq, balki vatanparvarlik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik kabi yuksak insoniy fazilatlar singdiriladi.

Xalq orasida shakllangan marosimlar, to'ylar, bayramlar va udumlar ham tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, "Navro'z", "Mehrjon", "Sumalak sayli" kabi qadimiy bayramlar xalqni birdamlik, do'stlik va mehr-oqibatga chorlaydi. Shuningdek, oilaviy udumlar bolaning beshik to'yi, sunnat to'yi, kelin salomi kabi marosimlar orqali yoshlar oilaviy qadriyatlarni o'rganadi va ularga hurmat ruhida tarbiyalanadi.

Milliy urf-odat va an'analar yoshlarni milliy o'zlikni anglashga, o'z xalqining tarixi va madaniyatiga faxr bilan qarashga o'rgatadi. Shu bilan birga, ular zamonaviy tarbiya jarayonida ham o'z ahamiyatini yo'qotmay, yangi avlodni komil inson qilib voyaga yetkazishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xalq pedagogikasidagi milliy urf-odat, an'ana va udumlar bu xalqning ma'naviy ildizlari bo'lib, ular yosh avlodni barkamol, axloqli va vatanparvar inson sifatida tarbiyalashning eng samarali vositalaridan biridir.

Natijalar va muhokama:

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalq pedagogikasida milliy urf-odat, an'ana va udumlar yosh avlodni tarbiyalashda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ular orqali bola o'z xalqining qadriyatlarini chuqur his etadi, ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini anglaydi va axloqiy me'yorlarga amal qilishni o'rganadi. Ayniqsa, oilaviy marosimlar, xalq bayramlari va urf-odatlar yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitadi, ularni ezgulikka, mehnatsevarlikka, hamjihatlik va hurmatga chorlaydi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, milliy an'ana va udumlar faqatgina tarixiy meros emas, balki hozirgi zamon tarbiyasida ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Masalan, "Navro'z" bayrami tabiat va inson uyg'unligini, yangilanish g'oyasini targ'ib etsa, "Beshik to'yi" yoki "Sunnat to'yi" kabi marosimlar orqali oilaviy qadriyatlar mustahkamlanadi. Bu jarayonlarda

kattalarning nasihatlar, xalq qo'shiqlari, maqollar va ertaklar orqali yoshlarga ezgulik, sabr-toqat, halollik kabi insoniy fazilatlar singdiriladi.

Natijada, xalq pedagogikasiga asoslangan tarbiya yoshlarning ma'naviy kamolotini ta'minlabgina qolmay, ularni milliy o'zlikni anglashga, jamiyatda faol va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Shu sababli, milliy urf-odat va an'analarni tarbiya tizimida keng qo'llash zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda.

Xulosa:

Xalq pedagogikasida milliy urf-odat, an'ana va udumlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni nihoyatda beqiyosdir. Chunki bu qadriyatlar xalqning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, donoligi va ma'naviy boyligini o'zida mujassam etadi. Har bir urf-odat va an'ana yosh avlodni ezgulikka, halollikka, mehnatsevarlikka, vatanparvarlik va insonparvarlikka undaydi. Ular orqali yoshlar o'z xalqining tarixini, madaniyatini va ma'naviyatini angelaydi, milliy o'zligini saqlab qoladi. Shu bois, xalq pedagogikasining eng muhim vazifalaridan biri ana shu qadriyatlarni tarbiya jarayoniga singdirishdir. Bugungi globalashuv sharoitida milliy an'ana va urf-odatlarning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki xorijiy madaniy ta'sirlar kuchaygan bir paytda, milliy qadriyatlar yoshlarni o'z ildizlariga sodiq, mustahkam e'tiqodli, ma'naviy barkamol insonlar qilib tarbiyalashda asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Agar tarbiya jarayonida xalq pedagogikasiga e'tibor qaratilsa, yoshlar orasida ma'naviy bo'shliq, begonalashuv va befarqlik kabi holatlar kamayadi. Xalq pedagogikasidagi urf-odat va an'analalar faqat marosim yoki rasm-rusum sifatida emas, balki chuqur ma'naviy mazmunga ega bo'lgan tarbiyaviy maktabdir. Masalan, "Beshik to'yi", "Navro'z", "Mehrjon", "Kelin salomi" kabi udumlar yoshlarni hurmat, mehr-oqibat, insoniylik va birdamlik ruhida tarbiyalaydi. Ularning har biri xalqning turmush tarzi, qadriyati va axloqiy me'yorlarini avloddan-avlodga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq pedagogikasi va undagi milliy urf-odat, an'ana va udumlar tarbiyaning ildizini tashkil etadi. Ular yosh avlodning nafaqat ma'naviy, balki ijtimoiy, madaniy va axloqiy kamolotini ta'minlaydi. Shu sababli, milliy qadriyatlarni o'rganish, asrash va amaliy hayotga tatbiq etish har bir pedagog, ota-ona va jamiyat a'zosi uchun muhim burchdir. Faqat shundagina biz yoshlarni milliy ruhda tarbiyalab, ularni komil, vatanparvar va barkamol shaxslar etib voyaga yetkaza olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalq pedagogikasi asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti. Jo'rayev, M. 2019.



2. Milliy qadriyatlar va tarbiya jarayoni. Toshkent: Fan va texnologiya. Qodirova, D. 2020.
3. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti. Karimov, I. 2016.
4. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo. Rasulov, A. 2018.
5. Xalq og'zaki ijodi va uning tarbiyaviy ahamiyati. Samarqand: Registon nashriyoti. Ahmedova, S. 2021.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. 2022-yil 28-mart.
7. Milliy an'analar yoshlar tarbiyasining ma'naviy omili. Toshkent: Nodirabegim nashriyoti. Sharipova, N. 2023.
8. Intangible Cultural Heritage and Education: A Guide for Teachers. Paris: UNESCO Publishing UNESCO 2020.



Xalq pedagogikasi manbalari

Xalmatova Dilobod Alimjanovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

Yerejepova Asiya Mirzatulla qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti Pedagogika yo'nalish
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: O'zbek xalq pedagogikasi xalqning ko'p asrlik tajribasi, donoligi va ma'naviy qadriyatlariga asoslangan tarbiya tizimi sifatida alohida ahamiyatga ega. Bu tizim xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar, xalq o'yinlari, amaliy san'at, diniy ta'limotlar, musiqa va tasviriy san'at kabi manbalar orqali avloddan-avlodga o'tib kelgan. Har bir manba yosh avlodda ezgulik, mehnatsevarlik, halollik, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi yuksak fazilatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Tadqiqotda xalq pedagogikasining ushbu manbalari tahlil qilinib, ularning ma'naviy va estetik ahamiyati hamda zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan samarali foydalanish yo'llari yoritilgan. Xalq pedagogikasi bugungi ta'lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiq, ma'naviy barkamol, ijtimoiy faollikka ega shaxslar etib tarbiyalashda muhim manba sifatida namoyon bo'lishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Xalq pedagogikasi, og'zaki ijod, urf-odatlar, an'analar, marosimlar, xalq o'yinlari, diniy ta'limotlar, amaliy san'at, hunarmandchilik, musiqa, tasviriy san'at, ma'naviy qadriyatlar, tarbiya, milliy meros.

Abstract: Uzbek folk pedagogy holds a special place as an educational system based on the people's centuries-old experience, wisdom, and moral values. This system has been passed down from generation to generation through such sources as oral folklore, customs, ceremonies, folk games, applied arts, religious teachings, music, and fine arts. Each of these sources plays an important role in fostering noble qualities in the younger generation, such as kindness, diligence, honesty, patriotism, and humanity. The study analyzes these sources of folk pedagogy, their moral and aesthetic significance, and the effective ways of applying them in modern educational processes. It is substantiated that folk pedagogy serves as an essential foundation in the current education system for raising individuals who are loyal to national values, spiritually mature, and socially active.

Keywords: Folk pedagogy, oral folklore, customs, traditions, ceremonies, folk games, religious teachings, applied arts, handicrafts, music, fine arts, moral values, education, national

Kirish. Har bir xalqning ma'naviyati, madaniyati va tarbiyaviy tajribasi asrlar davomida shakllanib, avlodlardan avlodga o'tib kelgan. Xalq pedagogikasi ana shu bebaho boyliklarni o'zida mujassam etgan xalq donoligi va hayotiy tajribasiga asoslangan tarbiya tizimidir. U xalqning turmushi, urf-odatlar, an'analar, marosimlari hamda og'zaki ijodi orqali yosh avlodga ezgulik, mehnatsevarlik, halollik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi fazilatlarni singdiradi. Bugungi kunda xalq pedagogikasini o'rganish va uni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash nihoyatda muhimdir. Chunki u o'z milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, yoshlarni milliy g'urur, vatanparvarlik va ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odatlar, xalq o'yinlari, diniy ta'limotlar, amaliy san'at, musiqa va tasviriy san'at kabi manbalar xalq pedagogikasining ajralmas tarkibiy qismlaridir.

Ushbu maqolada xalq pedagogikasining asosiy manbalari yoritilib, ularning tarbiyaviy, ma'naviy hamda estetik ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, bu manbalarni zamonaviy ta'lim tizimida qo'llashning samarali yo'llari ko'rsatib beriladi.

Asosiy qism. O'zbek xalq pedagogikasi asrlar davomida shakllanib, xalqning boy hayotiy tajribasi, axloqiy qadriyatlari va milliy urf-odatlariga tayangan holda rivojlanib kelgan. Xalq pedagogikasining asosiy manbalari turli sohalarni qamrab oladi va ularning har biri yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Ushbu manbalar orasida xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odatlar va an'analar, xalq o'yinlari, diniy ta'limotlar, xalq amaliy san'ati, musiqa, tasviriy san'at, tarixiy yodgorliklar hamda raqs san'ati alohida ahamiyatga ega. Xalq og'zaki ijodi — xalq pedagogikasining eng qadimiy va ta'sirchan manbalaridan biridir. Afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, maqollar, topishmoqlar, dostonlar, latifalar va qo'shiqlar orqali xalq o'z hayotiy tajribasini, donoligini va axloqiy qarashlarini yosh avlodga yetkazib kelgan. Ushbu janrlar orqali mehnatsevarlik, halollik, vatanparvarlik, odob, insonparvarlik kabi fazilatlar targ'ib qilinadi. Masalan, ertaklarda yovuzlik ustidan ezgulikning g'alabasi, maqollarda esa xalqning hayotiy hikmatlari mujassamdir. Milliy urf-odatlar, an'analar va marosimlar ham xalq tarbiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. To'ylar, sunnat marosimlari, Navro'z va hayit bayramlari, sayllar — bularning barchasi xalqimizning ijtimoiy birdamligi va mehr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlaydi. Har bir marosim orqali yoshlar ota-bobolarga hurmat, kattalarga ehtirom, kichiklarga mehr, o'z xalqining qadriyatlariga sadoqat ruhida tarbiyalanadi.

Xalq o'yinlari ham pedagogik jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Ular bolalarni jismoniy chiniqish, sabr, irodalilik, jamoaviylik, halollik va mardlikka o'rgatadi. O'yinchoqlarda esa xalqning turmushi, orzulari va estetik qarashlari aks etadi. Shu jihatdan xalq o'yinlari yoshlarning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Diniy ta'limotlar — xalq pedagogikasining ma'naviy asosi. Qur'oni Karim, hadislar va boshqa diniy manbalarda odob, halollik, mehr-shafqat, sabr-toqat, kechirimlilik kabi insoniy fazilatlar targ'ib qilingan. Ular yoshlarni nafaqat axloqiy, balki ruhiy jihatdan ham komil inson bo'lib ulg'ayishga undaydi.

Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi xalqning estetik didini, mehnatsevarlik va go'zallikka intilish fazilatlarini ifodalaydi. Gilamdo'zlik, kashtachilik, kulolchilik kabi san'at turlari yoshlarni mehnatga, sabr va did bilan ish tutishga o'rgatadi. Shu bilan birga, milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati xalqning ruhiy dunyosini, orzu-intilishlarini ifoda etadi va yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalaydi.

Tasviriy san'at va tarixiy yodgorliklar xalqning hayoti, dunyoqarashi va tarixiy taraqqiyotini aks ettiradi. Har bir obida, me'moriy asar yoshlar qalbida faxr, vatanparvarlik va ajdodlar merosiga hurmat tuyg'usini uyg'otadi. Shuningdek, xalq raqs san'ati nafis harakatlar orqali estetik tarbiyani shakllantiradi, go'zallikni his etishga o'rgatadi. Bugungi kunda xalq pedagogikasining mazkur manbalari zamonaviy ta'lim tizimida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'quv jarayonida milliy qadriyatlar, og'zaki ijod namunalaridan foydalanish, urf-odat va marosimlarni tarbiyaviy faoliyatga singdirish yoshlarning ma'naviy barkamolligini ta'minlaydi. Shu bois xalq pedagogikasining qadriyatlari nafaqat o'tmish merosi, balki kelajak avlodni tarbiyalashda mustahkam poydevor sifatida xizmat qilmoqda.

Mazkur manbalar nafaqat tarbiyaviy ahamiyatga ega, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy o'zligini anglashida ham beqiyos o'rin tutadi. Xalq pedagogikasi orqali millatning urf-odatlarini, qadriyatlarini, dunyoqarashi va ijtimoiy hayotga munosabati avloddan-avlodga o'tadi. Shu bois, xalq pedagogikasi zamonaviy ta'lim jarayonida o'z o'rnini topgan holda, yoshlarning ma'naviy immunitetini shakllantirishda muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

Bugungi globallashuv davrida o'zbek xalq pedagogikasining manbalarini chuqur o'rganish, ularni ta'lim dasturlariga uyg'unlashtirish zarur. Chunki zamonaviy yoshlar xalq qadriyatlari bilan bog'lanmasa, milliy o'zlikdan uzoqlashish xavfi paydo bo'ladi. Shu sababli xalq ijodi, marosimlar va diniy ta'limotlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga singdirish yoshlarning ijtimoiy faolligi, vatanparvarligi va axloqiy barkamolligini mustahkamlaydi.

Quyida xalq pedagogikasining manbalarining tarbiyaviy ahamiyat ko'rsatilgan;

- Yosh avlodda ezgulik, halollik, mehnatsevarlik, insonparvarlik va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantiradi.
- Hurmat, mehr-oqibat, birdamlik, ota-onaga ehtirom va milliy qadriyatlarga sadoqat tuyg'ularini kuchaytiradi.
- Halollik, sabr-toqat, kechirimlilik, saxovat, odob va axloqiy poklikni targ'ib etadi.
- Jismoniy chiniqish, sabr, irodalilik, halollik, jamoaviylik va raqobat madaniyatini rivojlantiradi.
- Mehnatsevarlik, go'zallikka intilish, sabr-bardosh va ijodiy tafakkurni kuchaytiradi.

Shunday qilib, xalq pedagogikasining barcha manbalari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular orqali yoshlar milliy o'zlikni anglaydi, ma'naviy barkamollikka erishadi hamda jamiyatda faol, mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanadi.

Xulosa. Xalq pedagogikasi o'zbek xalqining asrlar davomida to'plagan bebaho tajribasini, ma'naviy boyliklarini va tarbiyaviy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan noyob tizimdir. U nafaqat o'tmish avlodlar hayot falsafasini, balki bugungi kunda yoshlarni komil inson etib voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar, hunarmandchilik, san'at turlari va diniy qadriyatlar orqali insonda mehr-oqibat, sabr-toqat, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar shakllanadi. Shu boisdan xalq pedagogikasi manbalari zamonaviy ta'lim va tarbiya jarayonida beqiyos tarbiyaviy resurs sifatida qo'llanishi lozim. Har bir xalqning kelajagi uning yosh avlodiga berilayotgan tarbiya sifatiga bog'liq. Xalq pedagogikasiga tayanilgan ta'lim esa milliy o'zlikni saqlagan, ma'naviy barkamol, vatanparvar shaxslarni voyaga yetkazishda eng ishonchli yo'ldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mutalipova M. Xalq pedagogikasi —Toshkent: Fan, 2015.
2. Yusupov E. Qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi o'rni. – T.Universitet, 1996.
3. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011 y.
4. Abdullayeva. N.J. Xalq pedagogikasi. Darslik. —Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi||, Toshkent – 2021 y.
5. Sattarov M. —O'zbek udumlari. T. —Fan. 1994 y.
6. Musurmonova O., Baubekova G. O'zbek xalq pedagogikasi. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000 y.
7. Abdullaev M. Xalq pedagogikasi (o'quv qollanma) – Andijon-2024
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/-xalq-pedagogikasining-bola-tarbiyasidagi-ahamiyati/pdf>

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI**Numonova Mahina**

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar Universiteti,
„O'zbek tili“ fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya (O'zbek tilida)

Zamonaviy ilm-fan va innovatsiyalar nazariyasi ilm-fanning rivojlanish bosqichlarini, innovatsiyalarning jamiyatga ta'sirini va texnologik o'zgarishlarni o'rganadi. Maqolada ilm-fanning zamonaviy paradigmalari, innovatsiyalar nazariyalari (masalan, Shumpeter va Kuhn nazariyalari), shuningdek, sun'iy intellekt, biotexnologiya va barqaror rivojlanish kabi dolzarb mavzular muhokama qilinadi. Maqsad – ilm-fan va innovatsiyalarning jamiyat rivojiga qo'shgan hissasini tahlil qilish va kelajak istiqbollari baholash.

Аннотация (Русский язык)

Теория современной науки и инноваций изучает этапы развития науки, влияние инноваций на общество и технологические изменения. В статье обсуждаются современные парадигмы науки, теории инноваций (например, теории Шумпетера и Куна), а также актуальные темы, такие как искусственный интеллект, биотехнологии и устойчивое развитие. Цель – анализ вклада науки и инноваций в развитие общества и оценка будущих перспектив.

Abstract (English)

The theory of modern science and innovations examines the stages of scientific development, the impact of innovations on society, and technological changes. The article discusses modern scientific paradigms, innovation theories (such as those by Schumpeter and Kuhn), as well as relevant topics like artificial intelligence, biotechnology, and sustainable development. The aim is to analyze the contribution of science and innovations to societal progress and evaluate future prospects.

Kalit so'zlar (O'zbek tilida)

zamonaviy ilm-fan, innovatsiyalar nazariyasi, paradigmalar, texnologik o'zgarishlar, sun'iy intellekt, biotexnologiya, barqaror rivojlanish

Ключевые слова (Русский язык)

современная наука, теория инноваций, парадигмы, технологические изменения, искусственный интеллект, биотехнологии, устойчивое развитие

Keywords (English)

modern science, innovation theory, paradigms, technological changes, artificial intelligence, biotechnology, sustainable development

Kirish

Zamonaviy dunyoda ilm-fan va innovatsiyalar jamiyat rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Ilm-fan nazariyasi, xususan, Tomas Kuhnning "Ilmiy inqiloblar struktura"si kabi asarlarda ta'kidlanganidek, ilm-fanning rivojlanishini paradigmalar o'zgarishi orqali tushuntiradi. Innovatsiyalar esa, Jozef Shumpeterning "ijodiy yo'q qilish" kontseptsiyasiga asoslanib, iqtisodiy va texnologik o'sishni ta'minlaydi. Ushbu maqolada zamonaviy ilm-fan va innovatsiyalar nazariyasining asosiy jihatlari, ularning o'zaro bog'lanishi va kelajakdagi istiqbollari muhokama qilinadi.

Ilm-fan nazariyasi XX asrning ikkinchi yarmida jadal rivojlandi. Kuhnning paradigmaları nazariyasi bo'yicha, ilm-fan oddiy ilm-fan bosqichida rivojlanadi, ammo anomaliyalar to'planishi bilan inqilobiy o'zgarishlar yuz beradi. Masalan, kvant mexanikasi yoki relativlik nazariyasi kabi kashfiyotlar oldingi paradigmalarni o'zgartirdi. Innovatsiyalar nazariyasi esa, ilm-fanning amaliy natijalarini jamiyatga tatbiq etish jarayonini o'rganadi. Shumpeterning fikricha, innovatsiyalar – bu yangi mahsulotlar, jarayonlar yoki bozorlar yaratish orqali eski tuzumlarni yo'q qilishdir.

Zamonaviy Ilm-Fan Paradigmaları

Zamonaviy ilm-fan ko'p tarmoqli va integratsiyalashgan xususiyatga ega. Masalan, sun'iy intellekt (SI) sohasida mashinaviy o'rganish va neyron tarmoqlar ilm-fanning yangi paradigmalarini shakllantirmoqda. SI nazariyasi Alan Tyuringning "Tyuring testi"dan boshlanib, hozirgi kunda chuqur o'rganish algoritmlariga yetdi. Bu nazariya nafaqat informatika, balki tibbiyot, iqtisodiyot va hatto falsafada qo'llanilmoqda.

Biotexnologiya – zamonaviy ilm-fanning yana bir muhim yo'nalishi. Gen muhandisligi va CRISPR texnologiyasi orqali insoniyat kasalliklarni davolash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Nazariy jihatdan, biotexnologiya Darvinning evolyutsiya nazariyasini zamonaviy molekulyar biologiya bilan birlashtiradi. Masalan, COVID-19 vaktsinalarining tez rivojlanishi innovatsiyalarning ilm-fan bilan bog'lanishini ko'rsatdi.

Barqaror rivojlanish nazariyasi esa, ekologik muammolarni hal qilishda ilm-fanning rolini ta'kidlaydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) doirasida, innovatsiyalar qayta tiklanadigan energiya manbalarini (quyosh va shamol energiyasi) rivojlantirishga yo'naltirilgan. Nazariy jihatdan, bu "yashil innovatsiyalar" kontseptsiyasiga asoslanadi, bunda iqtisodiy o'sish ekologik muvozanat bilan birga yuritiladi.

Innovatsiyalar Nazariyasining Asoslari

Innovatsiyalar nazariyasi bir necha bosqichda rivojlandi. Klassik nazariyachilar orasida Shumpeterdan tashqari, Everett Rogersning "Innovatsiyalarning tarqalishi" nazariyasi muhim o'rin tutadi. U innovatsiyalarni qabul qilish jarayonini besh bosqichga bo'ladi: bilish, qiziqish, baholash, sinov va qabul qilish. Zamonaviy sharoitda bu nazariya raqamli transformatsiya kontekstida qo'llanilmoqda.

Masalan, blockchain texnologiyasi moliya va ta'minot zanjirlarida innovatsiyalarni keltirib chiqarmoqda. Nazariy jihatdan, blockchain markazlashmagan tizimlar nazariyasiga asoslanadi, bu esa an'anaviy iqtisodiy modellarni o'zgartiradi. Shuningdek, ochiq innovatsiyalar nazariyasi (Henri Chesbrough) kompaniyalarning tashqi manbalar bilan hamkorlik qilishini ta'kidlaydi, bu esa startaplar va universitetlar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytiradi.

Zamonaviy innovatsiyalar nazariyasida sun'iy intellektning roli alohida. SI orqali avtomatlashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, ammo ish o'rinlarining yo'qolishi kabi ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Nazariy tahlilda, bu "texnologik ishsizlik" kontseptsiyasiga oid, bunda innovatsiyalar iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, lekin taqsimot adolati muammosini yuzaga keltiradi.

Ilm-Fan va Innovatsiyalarning Jamiyatga Ta'siri

Ilm-fan va innovatsiyalar jamiyatni o'zgartiradi. Masalan, internetning paydo bo'lishi global aloqalarni o'zgartirdi, bu esa yangi ijtimoiy nazariyalarni (masalan, kastellsning "tarmoq jamiyati") keltirib chiqardi. Ammo, innovatsiyalar salbiy ta'sirlarga ham ega: masalan, iqlim o'zgarishi va axborot xavfsizligi muammolari.

Nazariy jihatdan, ilm-fan va innovatsiyalarni boshqarish uchun siyosiy mexanizmlar kerak. Hukumatlar innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun grantlar va patent tizimlarini ishlatadi. Masalan, Yevropa Ittifoqining "Horizon Europe" dasturi ilm-fan va innovatsiyalarga milliardlab yevro ajratadi.

Kelajakda, kvant hisoblash va nanotexnologiyalar yangi paradigmalarni yaratadi. Nazariy bashoratlar bo'yicha, bu texnologiyalar energiya va tibbiyotda inqilob qiladi, ammo etik muammolarni (masalan, maxfiylik va bioetikani) hal qilishni talab qiladi

Xulosa

Zamonaviy ilm-fan va innovatsiyalar nazariyasi insoniyat rivojining kalitidir. Paradigmalar o'zgarishi va innovatsiyalarning tarqalishi orqali jamiyat yangi bosqichlarga o'tadi. Ammo, bu jarayonni mas'uliyatli boshqarish kerak, chunki innovatsiyalar nafaqat foyda, balki xavflarni ham keltirib chiqaradi. Kelajakdagi tadqiqotlar sun'iy intellekt va barqarorlikka yo'naltirilishi lozim.



Ushbu maqola ilm-fan va innovatsiyalarning nazariy asoslarini yoritishga qaratilgan bo'lib, amaliy qo'llanish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

Kuhn T. (1962) "The Structure of Scientific Revolutions";
Schumpeter J. (1942) "Capitalism, Socialism and Democracy";
Rogers E. (1962) "Diffusion of Innovations".



Qo'shiqlar, maqollar va matallar, afsonalar va rivoyatlar, asotirlar va masallarning axloqiy tarbiyadagi o'rni

Xalmatova Dilobod Alimjanovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

Zoirova Maftuna Xayrulla qizining

Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti Pedagogika yo'nalish

2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Xalq og'zaki ijodi namunalarining — qo'shiqlar, maqollar va matallar, afsonalar, rivoyatlar, asotirlar hamda masallarning axloqiy tarbiyadagi o'rni beqiyosdir. Ular asrlar davomida xalqning ma'naviy hayoti, dunyoqarashi va ezgu orzu-intilishlarini ifodalab kelgan. Har bir og'zaki ijod namunasi inson qalbini ezgulikka yo'naltiruvchi, uni halollik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalovchi kuchga ega. Maqollar va matallar xalq donishmandligi mahsuli bo'lib, yoshlarni to'g'rilikka, sabr-toqatga va adolatga chorlaydi. Qo'shiqlar inson ruhiyatini poklaydi, milliy g'urur va muhabbat tuyg'ularini uyg'otadi. Afsonalar va rivoyatlar yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurashni badiiy tarzda yoritib, hayotiy saboq beradi. Asotirlar va masallar esa insonni fikrlashga, to'g'ri yo'lni tanlashga o'rgatadi. Shu tariqa xalq og'zaki ijodi namunalarini tarbiya jarayoniga tatbiq etish yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk, e'tiqodli va axloqan komil inson etib voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Xalq og'zaki ijodi, qo'shiqlar, maqollar, matallar, afsonalar, rivoyatlar, asotirlar, masallar, axloqiy tarbiya, ma'naviy qadriyatlar, xalq donishmandligi, ezgulik, halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g'urur, tarbiya jarayoni, ma'naviy barkamollik, axloqiy fazilatlar.

Abstract: The role of folk oral creativity — songs, proverbs and sayings, legends, tales, myths, and fables — in moral education is invaluable. These works have reflected the spiritual life, worldview, and noble aspirations of the people for centuries. Each form of oral creativity serves as a guiding force that directs the human heart toward goodness and nurtures honesty, diligence, compassion, and patriotism. Proverbs and sayings, as the embodiment of folk wisdom, encourage the young generation to be truthful, patient, and fair. Songs purify the soul, awaken national pride, and inspire feelings of love and devotion. Legends and tales portray the eternal struggle between good and evil, providing deep moral lessons. Myths and fables, in turn, teach people to

think critically and choose the right path in life. Thus, incorporating samples of folk oral creativity into the educational process plays a vital role in fostering a spiritually mature, faithful, and morally upright generation.

Keywords: Folk oral creativity, songs, proverbs, sayings, legends, tales, myths, fables, moral education, spiritual values, folk wisdom, goodness, honesty, diligence, patriotism, humanism, national pride, educational process, spiritual maturity, moral qualities.

Kirish. Xalq og'zaki ijodi xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy boyligi, dunyoqarashi va hayotiy tajribasini aks ettiradi. Qo'shiqlar, maqollar, matallar, afsonalar, rivoyatlar, asotirlar va masallar xalqning donishmandligi va ezgu g'oyalarining badiiy ifodasidir. Bu ijod namunalarida halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak fazilatlar targ'ib etiladi. Ayniqsa, axloqiy tarbiyada xalq og'zaki ijodi beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, u yosh avlodni ezgulik, adolat va sabr-toqat ruhida tarbiyalaydi. Maqollar hayotiy tajriba va donolikni singdirs, qo'shiqlar ruhiy poklik va milliy g'ururni uyg'otadi, afsonalar hamda masallar esa yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash orqali saboq beradi. Shu bois xalq og'zaki ijodini o'rganish va uni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash yoshlarni ma'naviy jihatdan yetuk, axloqan barkamol inson etib voyaga yetkazishda muhim o'rin tutadi.

Asosiy qism. Xalq og'zaki ijodi insoniyatning eng qadimiy ma'naviy boyliklaridan biri bo'lib, u xalqning tafakkuri, dunyoqarashi, orzu-intilishi va hayotiy tajribasini avloddan-avlodga yetkazuvchi kuchli tarbiyaviy vositadir. Ayniqsa, axloqiy tarbiya jarayonida xalq ijodi namunalarining o'rni beqiyosdir. Ular insonni ezgulikka, to'g'rilikka, mehr-oqibatga, sabr-toqatga, halollik va vatanparvarlikka yo'naltiradi. Xalq og'zaki ijodi turli janrlarni o'z ichiga oladi: qo'shiqlar, maqollar, matallar, afsonalar, rivoyatlar, asotirlar va masallar. Har biri inson ruhiyatiga o'ziga xos tarzda ta'sir etadi va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Qo'shiqlar xalqning ruhiy holatini, quvonch va iztiroblarini, hayotga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Ular inson qalbini ezgulik, muhabbat, sadoqat, vatanparvarlik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalaydi. O'zbek xalq qo'shiqlari mazmun jihatidan turlicha bo'lib, mehnat qo'shiqlari, lirik ishqiy qo'shiqlar va mavsumiy qo'shiqlar kabi turlarga bo'linadi. Mehnat qo'shiqlari, masalan, "Paxta terim qo'shig'i", "Ko'chalar" singarilar mehnatning qadri, halollik va birlik g'oyalarini targ'ib etadi. Lirik ishqiy qo'shiqlar esa "Qorako'z", "Dilbarim" kabi asarlar orqali sevgi, sadoqat, inson qalbidagi nozik tuyg'ularni ifodalaydi. Mavsumiy qo'shiqlar esa "Navro'z qo'shig'i", "Yomg'ir chaqirish qo'shig'i" singari marosimlarda aytilib, xalqning tabiatga hurmati va birligi ramzidir. Bu qo'shiqlar insonni mehnatsevarlik, mehr-muhabbat, tabiat bilan uyg'un yashashga o'rgatadi.

Maqollar va matallar xalq donishmandligining bebaho namunasi bo'lib, ular qisqa, lo'nda, ammo chuqur ma'noga ega. Har bir maqolda hayotiy tajriba, pand-nasihat va axloqiy xulosa mujassam. Masalan, "Mehnat qilgan to'yadi", "Halol mehnat – ezgulik manbai", "Yaxshilik qil, suvga tashla" kabi maqollar mehnatsevarlik, halollik va saxovat kabi fazilatlarni targ'ib etadi. Maqollar insonni o'z xatti-harakatlariga tanqidiy qarashga, oqilona qaror qabul qilishga o'rgatadi. Matallar esa, odatda, biror voqea, hodisa yoki xatti-harakatga kinoyali, o'xshatishli tarzda munosabat bildiradi. Ular kulgi va kinoya orqali insondagi kamchiliklarni ko'rsatib, uni yaxshilikka chorlaydi. Masalan, "Qarg'a qovurilgan go'shtni xom debdi" yoki "Bo'ridan qo'rqmagan, bo'ringa o'ljasiga aylangan" kabi matallar insonni hushyorlikka, mehnatsevarlikka, o'zini tuta bilishga o'rgatadi.

Afsonalar va rivoyatlar xalqning qadimiy dunyoqarashi, orzulari va ishonchlarini ifodalovchi janrlardir. Ular ko'pincha ezgulik bilan yovuzlik, halollik bilan hiyla, adolat bilan insofsizlik o'rtasidagi kurashni tasvirlaydi. Afsonalarda yaxshi fazilatlar g'alaba qozonadi, yomonlik esa jazolanadi — bu esa o'quvchini ijobiy xulq-atvorga yo'naltiradi. Masalan, "Ko'kaldosh afsonasi" va "Boysun afsonasi" kabi xalq afsonalarida insonning orzu, sadoqat va fidoyiligi ulug'lanadi. Rivoyatlar esa ko'pincha tarixiy shaxslar yoki joy nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular orqali milliy g'urur, vatanparvarlik, sabr-toqat va e'tiqod tuyg'ulari mustahkamlanadi. Masalan, "Shiroq rivoyati", "Go'ri Amir rivoyati" kabi o'zbek xalq rivoyatlarida jasorat, adolat va insoniy g'urur madh etiladi. Rivoyatlar xalqning o'z tarixiga hurmat bilan qarashini, ajdodlarga sadoqatini, insoniy qadriyatlarga e'tiborini oshiradi. Shu sababli afsona va rivoyatlar yosh avlodni ma'naviy barkamol, e'tiqodli inson sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Asotirlar (miflar) insoniyat tafakkurining eng qadimiy shakllaridan biri bo'lib, ular orqali xalq tabiat hodisalarini, olam yaralishini, yaxshilik va yomonlik kuchlarini o'z tasavvurida ifodalagan. Asotirlar ko'pincha ramziy ma'noga ega bo'lib, ularning ichida axloqiy saboqlar chuqur yashiringan. Masalan, ba'zi asotirlar insonning g'ururi, adolati, sadoqati yoki zulmga qarshi kurashini ifodalaydi. Ular yoshlarni o'z orzulariga sodiq bo'lishga, haqiqatni himoya qilishga, ezgulik yo'lidan og'maslikka o'rgatadi. Shu bois asotirlar nafaqat qadimiy e'tiqodlar mahsuli, balki bugungi kunda ham axloqiy va falsafiy mazmunga ega tarbiyaviy manba sifatida qadrlanadi.

Masallar xalq ijodining eng ibratli janrlaridan biri bo'lib, ularning mazmunida hayotiy tajriba, pand-nasihat va chuqur axloqiy xulosa mujassam. Masallar, odatda, hayvonlar yoki o'simliklar ishtirokida yaratiladi, ammo ular orqali insoniy fazilatlar yoritiladi. Masalan, "Tulki va uzum", "Bo'ri va qo'y", "Qarg'a bilan tulki" kabi masallar yolg'onchilik, manmanlik, hiylakorlik kabi

illatlarni fosh etadi va halollik, sadoqat, do'stlik kabi ezgu fazilatlarni targ'ib qiladi. Masallar orqali bolalar to'g'ri va noto'g'ri ajratishni, oqibat haqida o'ylashni, hayotiy qarorlarni to'g'ri qabul qilishni o'rganadilar.

Xalq og'zaki ijodi namunalarining barchasi — qo'shiqlar, maqollar, matallar, afsonalar, rivoyatlar, asotirlar va masallar — insonni ezgulik sari yetaklovchi, ma'naviy kamolotga yo'naltiruvchi bebaho boylikdir. Ular yosh avlodga hayotning asl ma'nosini anglashni, yaxshilik va yomonlikni ajrata bilishni, to'g'rilik, halollik, sabr-toqat, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi yuksak fazilatlarni o'zlashtirishni o'rgatadi. Shu bois xalq og'zaki ijodi namunalarini ta'lim-tarbiya jarayonida keng qo'llash, ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish bugungi kunda yoshlarni axloqan barkamol, ma'naviy yetuk shaxs etib voyaga yetkazishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodining inson tarbiyasidagi o'rni quyidagilardan iborat:

- Xalq qo'shiqlari inson qalbini ezgulik, mehnatsevarlik, mehr-muhabbat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Ular xalqning quvonchi, g'ami, orzusi va hayotga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Ayniqsa, mehnat, lirik ishqiy va mavsumiy qo'shiqlar insonni mehnatni qadrlashga, tabiat bilan uyg'un yashashga va milliy qadriyatlarga sodiq bo'lishga o'rgatadi.
- Maqollar va matallar xalq donishmandligining ifodasi bo'lib, ular orqali inson halollik, sabr-toqat, adolat, mehnatsevarlik va to'g'rilik kabi yuksak axloqiy fazilatlarni o'zlashtiradi. Maqollar hayotiy haqiqatni lo'nda shaklda ifodalasa, matallar kinoya orqali insondagi kamchiliklarni ko'rsatib, uni yaxshilikka undaydi.
- Afsonalar va rivoyatlar insonni ezgulik, jasorat, vatanparvarlik va sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Ular xalqning qadimiy e'tiqodi va tarixiy xotirasini saqlab, yosh avlodga milliy g'urur va tarixiy merosni qadrlash tuyg'usini singdiradi.
- Masallar hayotiy saboqlar, pand-nasihat va ibratli voqealar orqali insonni axloqan kamolga yetkazadi. Ular halollik, sadoqat, do'stlik va mehnatsevarlikni targ'ib etib, hiylakorlik, manmanlik, yolg'onchilik kabi illatlardan ogohlantiradi.

Xulosa: Xalq og'zaki ijodi inson tarbiyasining eng muhim manbalaridan biri bo'lib, u xalqning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, donishmandligi va ezgu g'oyalarini o'zida mujassam etadi. Qo'shiqlar, maqollar, matallar, afsonalar, rivoyatlar va masallar orqali insonda halollik, mehnatsevarlik, sabr-toqat, vatanparvarlik, mehr-oqibat kabi yuksak axloqiy fazilatlar shakllanadi. Bu asarlar yosh avlodni ezgulik, adolat, sadoqat va

insonparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Xalq ijodi nafaqat o'tmishning boy ma'naviy merosi, balki bugungi kunda ham tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan, inson ruhiyatiga chuqur ta'sir etuvchi bebaho manbadir. Shu bois, xalq og'zaki ijodi namunalarini ta'lim-tarbiya jarayonida keng qo'llash yoshlarni ma'naviy jihatdan yetuk, e'tiqodli va axloqan barkamol inson etib voyaga yetkazishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O. Safarov O'zbek xalq og'zaki ijodi. T.,
2. G'afurov, N. (2010). O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti
3. Sarimsoqov B. o'zbek folklorining janrlar tarkibi. O'zbek folklori ocherklari. 3 jildlik. 1-jild. T.,
4. Mirzaev T. O'zbek xalq maqollari.- Toshkent: SHarq, 2012.
5. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Darslik. – T.: O'qituvchi, 1980.
6. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent, "O'qituvchi", 1990.
8. Asotirlar va rivoyatlar. T., 1990.
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/-maqol-va-hikmat-soz-larni-folklor-janri-sifatida-tasniflashning-mohiyati-va-tamoyillari/pdf>

The Interaction of Verbal and Nonverbal Codes in Linguistic Discourse: A Pragmatic Approach

Melikuziev Azimjon Latifjon ugli

Doctor of philosophy in philological sciences, PhD

Abstract

This paper investigates the interrelation between verbal and nonverbal codes in linguistic discourse from a pragmatic perspective. It focuses on how nonverbal elements—gestures, facial expressions, posture, and prosodic features—interact with verbal language to express meaning, manage discourse, and convey speaker intention. The study emphasizes that nonverbal communication is not supplementary to verbal speech but operates as an integrated semiotic system within pragmatic interaction. The findings reveal that the interplay between verbal and nonverbal codes ensures the coherence, expressiveness, and contextual accuracy of discourse.

Keywords: verbal communication, nonverbal codes, pragmatics, discourse, multimodality, semiotics, speech acts

1. Introduction

Language, as the primary means of human communication, has traditionally been analyzed through its verbal components—phonology, morphology, syntax, and semantics. However, modern linguistics increasingly recognizes that verbal language alone cannot account for the complexity of human interaction. Communication is inherently **multimodal**, involving both **verbal** and **nonverbal codes** that together create meaning.

Nonverbal signals such as gestures, gaze, posture, facial expressions, and prosodic variations play crucial roles in encoding pragmatic information and contextualizing linguistic meaning. They shape the interpretation of speech acts, express interpersonal attitudes, and regulate conversational flow.

From a **pragmatic perspective**, meaning emerges not only from linguistic forms but also from how these forms are performed, perceived, and contextualized. This study aims to analyze the interaction between verbal and nonverbal codes in discourse and explore how this interplay contributes to pragmatic interpretation and communicative effectiveness.

2. Literature Review

Research into the interaction of verbal and nonverbal communication has evolved through interdisciplinary perspectives combining **linguistics, semiotics, psychology, and communication studies**.

Austin (1962) and **Searle (1969)** established the theory of **speech acts**, which paved the way for understanding communication as an action involving both words and behavior. Nonverbal cues are essential in realizing the illocutionary force of speech acts—such as asserting, requesting, or apologizing.

Birdwhistell (1970) and **Ekman & Friesen (1969)** pioneered the study of **kinesics**, showing that body movements function as a structured system of signs parallel to language. **Argyle (1975)** emphasized the complementary and substitutive roles of nonverbal behavior in conversation.

From a **semiotic standpoint**, **Peirce (1931–1958)** categorized nonverbal signs into icons, indexes, and symbols, providing a foundation for their linguistic interpretation. **Jakobson (1960)** later proposed that all modes of communication, including gestures and tone, contribute to meaning through specific communicative functions (referential, emotive, conative, phatic, metalingual, and poetic).

Recent studies in **pragmatics and multimodal discourse analysis** (Kress & van Leeuwen, 2001; Norris, 2004) stress that nonverbal elements form part of an integrated system of meaning construction where verbal and visual signs co-create discourse coherence.

3. Methodology

The research employs a **qualitative pragmatic-discourse analysis**, examining natural spoken interactions and audiovisual materials (interviews, public speeches, and conversations). The focus lies on identifying instances where verbal and nonverbal codes interact to produce pragmatic meaning.

The analysis was guided by three main criteria:

1. **Complementary interaction** – nonverbal cues support and emphasize verbal content.
2. **Contradictory interaction** – nonverbal cues oppose or negate the verbal message.
3. **Regulatory interaction** – nonverbal cues control the flow and structure of discourse.

Each communicative episode was analyzed for its **pragmatic function**, such as politeness, emphasis, irony, or emotional expression, and how these were signaled through combined verbal and nonverbal means.

4. Results and Discussion

The results confirm that verbal and nonverbal codes interact dynamically in discourse, forming a unified semiotic system that facilitates pragmatic understanding.

4.1 Complementary Interaction

Nonverbal signals often reinforce verbal expressions. For example, a speaker saying *"I'm so happy for you"* accompanied by a genuine smile and open posture conveys sincerity. Here, the gesture and facial expression validate the verbal message, ensuring pragmatic coherence.

4.2 Contradictory Interaction

Sometimes, nonverbal behavior contradicts verbal language, creating **irony**, **sarcasm**, or **ambiguity**. A phrase like *"That's just great"* uttered with a flat tone or an eye roll signifies dissatisfaction rather than approval. Pragmatically, the nonverbal cue determines the true illocutionary force of the utterance.

4.3 Regulatory Interaction

Nonverbal codes regulate turn-taking, topic shifts, and conversational rhythm. Gestures such as nodding or raising a hand signal readiness to speak or yield the floor, while eye contact maintains engagement and feedback. These regulatory cues ensure discourse cohesion and mutual understanding.

4.4 Pragmatic Implications

The interaction between verbal and nonverbal systems is crucial for interpreting speaker intent. Pragmatically, meaning is not encoded solely in words but arises from the synergy between linguistic forms and embodied actions. Successful communication thus depends on the receiver's ability to decode both verbal syntax and nonverbal context.

Moreover, the study found that **cultural variability** affects interpretation. Gestures and postures that support politeness in one language community may carry opposite connotations in another, highlighting the **linguocultural** dimension of nonverbal pragmatics.

5. Conclusion

The pragmatic approach to communication underscores that meaning is co-constructed through verbal and nonverbal interaction. Nonverbal behavior—far from being a mere supplement to speech—functions as a linguistic-pragmatic resource that shapes discourse meaning, regulates interaction, and conveys speaker intention.

Understanding this interaction is vital for linguistic pragmatics, intercultural communication, and discourse studies. The integration of nonverbal analysis into linguistic research enhances our comprehension of how language operates in real communicative contexts.



Future research should expand into cross-linguistic comparisons and multimodal corpus studies to further clarify the interplay between verbal and nonverbal systems across diverse linguistic communities.

References

1. Argyle, M. (1975). *Bodily Communication*. Methuen.
2. Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. Oxford University Press.
3. Birdwhistell, R. L. (1970). *Kinesics and Context: Essays on Body Motion Communication*. University of Pennsylvania Press.
4. Ekman, P., & Friesen, W. V. (1969). *The Repertoire of Nonverbal Behavior: Categories, Origins, Usage, and Coding*. *Semiotica*, 1(1), 49–98.
5. Jakobson, R. (1960). *Closing Statement: Linguistics and Poetics*. In *Style in Language* (pp. 350–377). MIT Press.

MOLIYAVIY NATIJALAR TO'G'RISIDAGI HISOBOT.

Bozorov Boburjon Baxtiyorjon o'g'li

Andijon davlat texnika instituti

"Buxgalteriya hisobi va auditi"

yo'nalishii 4-bosqich talabasi

boburjonbozorov521@gmail.com Tel:(+99899)-004-51-20

Annotatsiya Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotini tuzish, uning mazmuni va ahamiyati tahlil qilingan. Moliyaviy natijalar hisobotining asosiy maqsadi — korxona faoliyatining foyda yoki zarar bilan yakunlanganini, daromad va xarajatlar tarkibini aniqlash hamda ularning o'zaro nisbatini baholashdan iborat. Maqolada daromad va xarajatlarni to'g'ri tasniflash, buxgalteriya standartlariga muvofiq hisobot tuzish tartibi, shuningdek, moliyaviy natijalarni tahlil qilish usullari bayon etilgan. Shuningdek, hisobot ma'lumotlaridan samarali foydalanish orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalarida moliyaviy hisobotning ishonchliligi va shaffofligini oshirish bo'yicha takliflar ham ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy natijalar, daromad, xarajat, foyda, zarar, moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobi, tahlil.

Аннотация В данной статье рассмотрены вопросы составления отчёта о финансовых результатах хозяйствующих субъектов, его содержание и значение. Основная цель отчёта о финансовых результатах заключается в определении того, завершилась ли деятельность предприятия прибылью или убытком, в выявлении структуры доходов и расходов, а также в оценке их соотношения. В статье изложены принципы правильной классификации доходов и расходов, порядок составления отчёта в соответствии с бухгалтерскими стандартами, а также методы анализа финансовых результатов. Кроме того, освещено значение использования данных отчёта для принятия управленческих решений. В результате исследования предложены меры по повышению достоверности и прозрачности финансовой отчётности.

Ключевые слова: Финансовые результаты, доход, расход, прибыль, убыток, финансовая отчётность, бухгалтерский учёт, анализ.

Abstract This article analyzes the preparation of the financial performance report of business entities, its content, and its importance. The main purpose of the financial performance report is to determine whether the company's activities resulted in profit or loss, to identify the structure of income and expenses, and to assess their relationship. The article describes

the correct classification of income and expenses, the procedure for preparing reports in accordance with accounting standards, and the methods for analyzing financial results. In addition, the importance of using report data for managerial decision-making is highlighted. The study also proposes recommendations to improve the reliability and transparency of financial reporting.

Keywords: Financial results, income, expenses, profit, loss, financial reporting, accounting, analysis.

Kirish

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobot tizimining eng muhim tarkibiy qismidir. Ushbu hisobot korxonaning ma'lum bir davr mobaynidagi moliyaviy faoliyati natijalarini – daromad, xarajat va sof foyda yoki zarar ko'rsatkichlarini yoritadi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot yordamida korxona faoliyatining samaradorligi, boshqaruv qarorlarining natijadorligi va moliyaviy barqarorligi baholanadi.

Bugungi kunda iqtisodiyotning barcha sohalarida raqobatning kuchayib borishi moliyaviy hisobotlarning aniqligi, ishonchliligi va shaffofligiga bo'lgan talabni oshirmoqda. To'g'ri va standartlarga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar nafaqat korxona rahbariyatiga, balki investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga ham ishonchli ma'lumot beradi.

Mazkur maqolada moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning tuzilishi, mazmuni, uni shakllantirish tartibi, tahlil qilish usullari hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi o'rni yoritilgan.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning asosiy qismlari

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot quyidagi qismlarga bo'linadi:

- Daromadlar
- Sotilgan mahsulot tannarxi
- Yalpi foyda
- Operatsion harajatlar
- Soliq solingunga qadar foyda
- Foyda solig'i
- Sof foyda yoki zarar

Daromadlar bo'limi

Daromadlar bo'limida korxonaning asosiy va qo'shimcha faoliyatlardan olgan barcha daromadlari aks ettiriladi. Korxonaning asosiy faoliyati faqatgina bir turda bo'ladi holos. Faoliyatlar asosan savdo, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bo'ladi. Qo'shimcha daromadlar asosan qimmatli qo'g'ozlar,

omonatlar, valyuta va boshqa bir nechta faoliyatlar asosida olinadi. Daromadlar buxgalteriya balansining passivlar qismida ko'payadi.

Sotilgan mahsulot tannarxi

Bu bo'limda korxona sotilgan maxsulotni ishlab chiqarish uchun sarflagan ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha asosiy ishlab chiqarish va yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari aks ettiriladi.

Bu xarajatlar asosan quyidagilar hisoblanadi:

- Materiallar sarfi
- Mehnat xarajatlari
- Bino va asbob uskunalarning eskirishi(amortizatsiya)

Yalpi foyda

Bu daromad va sotilgan mahsulot o'rtasidagi farq hisoblanadi. Biz buni quyidagicha aniqlaymiz:

Yalpi foyda = Daromad – Sotilgan mahsulot tannarxi

Operatsion harajatlar

Korxonaning faoliyat yuritishi bilan bog'liq, lekin ishlab chiqarish jarayoniga bevosita taalluqli bo'lmagan xarajatlar opratsion harajatlar bo'limiga kiritiladi.

- Bular quyidagilar:
- Sotuv harajatlari
- Ma'muriyat harajatlari (ma'muriyat hodimlar ish haqqi, bino ijara, bino eskirish)
- Boshqa operatsion harajatlar

Soliq solinguncha bo'lgan foyda

Bu – asosiy va moliyaviy faoliyat natijalarining yig'indisi bo'lib, soliqlar hisoblangunga qadar korxonaning umumiy foydasini bildiradi.

Foyda solig'i

Korxona foydasidan davlatga to'lanadigan soliq summasi.

Sof foyda yoki zarar

Bu – **hisobot davrining yakuniy moliyaviy natijasi**. Agar daromad xarajatlardan ko'p bo'lsa — **sof foyda**, aks holda — **sof zarar** hosil bo'ladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni jadval ko'rinishida ko'radigan bo'lsak, quyidagicha bo'ladi:

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot	
Daromadlar	10 000 000
Xarajatlar	-6 400 000
Yalpi foyda	3 600 000
Operatsion harajatlar	-1 350 000
Soliq to'lagunga qadar foyda	2 250 000
Foyda solig'i (12%)	-270 000
Sof foyda	1 980 000

Xulosa

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini, daromad va xarajatlar o'rtasidagi nisbatni, shuningdek, korxona faoliyatining foyda yoki zarar bilan yakunlanishini ifodalaydigan muhim moliyaviy hujjatdir. Ushbu hisobot korxonaning iqtisodiy samaradorligini baholash, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va investitsion jozibadorligini aniqlashda asosiy axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni to'g'ri va o'z vaqtida tuzish korxona foydaliligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish hamda moliyaviy intizomni mustahkamlash imkonini beradi. Hisobotning shaffofligi va ishonchliligi esa nafaqat korxona rahbariyati, balki investorlar, soliq organlari va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan, har bir xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni amaldagi buxgalteriya standartlari va qonunchilik talablariga muvofiq ravishda yuritishi, undagi ma'lumotlardan samarali tahlil va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2016 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. "Moliyaviy hisobotlarning milliy standartlari (MHMS)". — Toshkent, 2020 yil.
3. Karimov A.A., Tursunov B.R. **Buxgalteriya hisobi nazariyasi**. — Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2021 yil.
4. Xo'jayev N., Ismoilov A. **Moliyaviy hisobot va tahlil**. — Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019 yil.
5. Horngren C.T., Harrison W.T., Oliver M.S. **Accounting**. — Pearson Education, 2018.

Pedagogik innovatsiyalar asosida bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish metodikasi

Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Maktrabgacha ta'lim kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik innovatsiyalar asosida bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Innovatsion yondashuvlarning an'anaviy tarbiyaviy metodlardan farqlari, ularning ta'lim jarayoniga integratsiyasi hamda bola shaxsiga ko'rsatadigan psixologik-pedagogik ta'siri tahlil qilindi. Axloqiy tarbiya jarayonida interfaol metodlar, loyiha faoliyati, o'yin texnologiyalari va STEAM elementlarining ahamiyati asoslab berildi. Maqolada axloqiy qadriyatlarning bolada tashqi nazorat orqali emas, balki ichki ehtiyoj sifatida shakllanishini ta'minlaydigan innovatsion mexanizmlar ko'rsatildi. Tadqiqot natijalari pedagogik innovatsiyalar bola shaxsining axloqiy rivojlanishini jadallashtirishi, ijtimoiy moslashuvni kuchaytirishi va mustaqil axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantirishiga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Tayanch so'zlar: Pedagogik innovatsiya, axloqiy qadriyatlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol metodlar, loyiha metodi, STEAM yondashuvi, o'yin texnologiyalari, empatiya, ijtimoiy moslashuv, tarbiyaviy jarayon.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy talab – bu nafaqat bilim berish, balki yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ongli ravishda shakllantirishdir. Axloqiy ong, ma'naviyat va ijtimoiy mas'uliyat bola shaxsining barqaror rivojlanishini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim bosqichlarida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonini zamonaviy pedagogik innovatsiyalar asosida tashkil etish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Innovatsion metodlar qo'llanilgan ta'lim jarayoni bolalarning faqat tashqi intizomini emas, balki ichki motivatsiyasi, shaxsiy pozitsiyasi va ijtimoiy moslashuv mexanizmlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Chunki innovatsion texnologiyalar orqali bola bilimni tayyor ko'rinishda emas, balki faol izlanish, tajriba, muomala va o'yin orqali egallaydi. Bu esa axloqiy me'yorlarning majburiy qoidalar sifatida emas, balki shaxsiy qadriyat sifatida qabul qilinishiga olib keladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – pedagogik innovatsiyalar asosida bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini

ochib berish va amaliy mexanizmlarini ko'rsatishdan iborat. Shu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. pedagogik innovatsiyalar tushunchasining ilmiy-nazariy mazmunini yoritish;
2. axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda innovatsion metodlarning ahamiyatini asoslash;
3. bolalarda axloqiy tarbiyani samarali tashkil etishning metodik bosqichlarini aniqlash;
4. innovatsiyalar asosida erishiladigan pedagogik natijalarni tahlil qilish.

Pedagogik innovatsiyalar, avvalo, quyidagi jihatlar bilan an'anaviy ta'limdan farqlanadi:

- bola shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv;
- mustaqil fikrlash va refleksiyani rag'batlantirish;
- subyektlararo hamkorlikning kuchayishi;
- o'yin, loyiha, tadqiqot kabi faol metodlarga tayangan holda axloqiy tajriba orttirish.

Innovatsiyaning mohiyati shundaki, u bola uchun axloqiy me'yorlarni abstrakt nazariya sifatida emas, balki real hayotiy amaliyot sifatida ochib beradi. Masalan, "adolat", "hamkorlik", "mehr-shafqat", "mas'uliyat" kabi qadriyatlar faqat suhbat yoki tushuntirish orqali emas, balki sinfdagi yoki guruhdagi ijtimoiy o'yinlar orqali bevosita tajriba sifatida his etiladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda yangicha mazmunda bo'layotgan islohotlar – innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish, tarbiyachi va o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish hamda bola shaxsini rivojlantirishga qaratilgan metodlarni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Innovatsion muhitda tarbiyachi nafaqat nazorat qiluvchi, balki yo'naltiruvchi, motivatsiya beruvchi va hamkor sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, pedagogik innovatsiyalar bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonini mazmunan boyitadi, bolaning ichki ehtiyojlari va ijtimoiy tajribasi o'rtasida real bog'liqlik hosil qiladi. Bu esa ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi va natijada bolada barqaror axloqiy qarashlar shakllanadi.

Bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon bo'lib, u faqat tayyor qoidalarning o'qitilishi orqali emas, balki bolaning real tajriba orttirishi natijasida shakllanadi. Shu bois metodik yondashuv pedagogik jarayonni shunday tashkil etishni talab etadiki, unda bola axloqiy me'yorlarni o'zlashtirmaydi, balki kashf etadi, refleksiya asosida o'z qarashini shakllantiradi.

Metodik asoslar, avvalo, quyidagi tamoyillarga tayangan holda shakllanadi:

1. Shaxsga yo'naltirilganlik tamoyili

Axloqiy tarbiya umumiy standartlar asosida emas, balki bolaning yosh va individual psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Har bir bola qadriyatlarni o'z hayotiy tajribasidan kelib chiqib qabul qiladi.

2. Faol ishtirok tamoyili

Bola – jarayonning faol subyekti. U o'yin, rolli vaziyatlar, guruhii munozaralar orqali o'zi xulqiy model yaratadi. Bu o'qituvchining izohiga qaramlikni kamaytiradi.

3. Tajriba va refleksiya birligi

Bolaning qilgan harakati ustidan qayta tahlil (refleksiya) yurita olishi muhim. Chunki aks-sado bo'lmagan bilim axloqiy holatga aylanmaydi.

4. Hamkorlik va muloqot tamoyili

Axloqiy tajriba yakka emas, ko'proq ijtimoiy jarayonlarda boyiydi. Shu bois sinfda yoki guruhda muloqotli o'yin texnologiyalari muhim rol o'ynaydi. Bu metodik asoslar shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuvda tarbiyachi faqat "bilim beruvchi" emas, balki bolaning axloqiy o'sishini boshqaruvchi moderatorga aylanadi. Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, bola axloqiy qadriyatlarni tashqi nazorat bilan emas, ichki ehtiyoj bilan qabul qiladi. Metodik asoslar psixologik tayyorgarlik bilan ham chambarchas bog'liq. Masalan, kichik yoshdagi bolalarda empatiya va ijtimoiy sezgirlikni kuchaytirish orqali "boshqaga zarar yetkazmaslik", "adolatli bo'lish", "bir-birini qo'llab-quvvatlash" kabi qadriyatlar tabiiy shakllana boshlaydi. Bu esa innovatsion ta'lim muhiti orqali barqarorlashadi va bola shaxsi strukturasi elementiga aylanadi.

Axloqiy qadriyatlarni samarali shakllantirishda innovatsion metodlarning o'rni juda katta. Chunki bunday metodlar nafaqat bilimni yetkazadi, balki bolaning real ijtimoiy munosabatga kirishishini, o'z xulqini baholash va boshqarish malakasini shakllantiradi. Innovatsion yondashuvlarda bola axloqiy xulq namunalarini o'yin, muloqot, tajriba, hamkorlik orqali o'zlashtiradi.

Quyida bolalar axloqiy tarbiyasida keng qo'llaniladigan innovatsion metodlarning mexanizmi yoritiladi:

1. Interfaol metodlar

"Munozara", "Aqliy hujum", "Rol o'ynash", "Bahsli vaziyat" kabi interfaol metodlar bolada:

- o'z fikrini ifodalash,
- boshqalarning pozitsiyasini tushunish,
- qarama-qarshi holatlarda yechim topish

ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunday metodlar orqali bola nafaqat "yaxshi-yomon"ni biladi, balki nima uchun shu xatti-harakat axloqan to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini tushuna boshlaydi.

2. Loyiha metodi

Loyiha faoliyati bolaning hamkorlikda harakat qilish tajribasini oshiradi. Masalan, guruh bo'lib "Mehr atrofimizda", "Yaxshilik qil!" kabi kichik ijtimoiy loyihalar tashkil etilishi natijasida bola real hayotga yo'naltirilgan axloqiy faoliyatni amalda sinab ko'radi. Bu yondashuv "axloq darsini" nazariy emas, hayotiy amaliyot sifatida ko'rsatadi.

3. STEAM yondashuvi elementlari

STEAM metodikasi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) orqali bolaning axloqiy qarashlari ijodiy fikrlash bilan uyg'unlashadi. Masalan, san'at orqali empatiya, texnologik loyihalar orqali mas'uliyat, jamoaviy muammolarni hal etish orqali hamkorlik qadriyatlari mustahkamlanadi.

4. O'yin texnologiyalari

Xulosa

Shunday qilib, mazkur tadqiqot mavzusi zamonaviy pedagogik jarayonning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, keyingi bo'limlarda uning ilmiy-metodik asoslari batafsil yoritiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida "innovatsiya" tushunchasi faqat yangi texnologiya yoki texnik vositalarni qo'llash bilan cheklanmaydi. Ilmiy adabiyotlarda innovatsiya ta'lim mazmuni, metodlari, shakllari va tashkil etish mexanizmidagi yangilanish sifatida talqin etiladi. Ya'ni innovatsion ta'lim – bu bolani bilimning iste'molchisi emas, balki uning yaratuvchisiga aylantiruvchi faoliyatga yo'naltirilgan jarayondir.


Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda axloqiy qarashlar o'yin vositasida eng samarali shakllanadi. Rolli o'yinlarda bola o'zi tanlagan rol orqali axloqiy holatni kechiradi, his qiladi va ichki tajriba sifatida qabul qiladi. Shuning uchun innovatsion ta'limda o'yin nafaqat ko'ngilochar vosita, balki qadriyatlar tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Bu metodlar innovatsion yondashuvning asosiy mexanizmini tashkil etadi: bola qoidaga bo'ysunmaydi, balki o'zi to'g'ri xulqni tanlaydi. Shu jihat innovatsion ta'limning axloqiy tarbiyadagi ustunlik tomonidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avliyoqulov N., Musurmonova O. Pedagogik innovatsiyalar va innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan, 2021.



2. Xushnazarova M. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
3. Давыдов В.В. Развитие теоретического мышления в раннем возрасте. – Москва: Педагогика, 2019.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard Univ. Press, 2018.
5. Dewey J. Democracy and Education. – New York, 2020 (reprint).
6. Xolmurodova G. “Maktabgacha ta’limda axloqiy qadriyatlar shakllanishi mexanizmlari”. – Pedagogik mahorat jurnali, 2023/2.
7. UNESCO Report. Transforming Early Childhood Education through Innovation. – Paris, 2021.



MAMLAKATIMIZ TRANSPORT TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Jo'rayeva Shahzoda Farhod qizi
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi transport xizmatlari bozorining hozirgi holatini o'rganishga qaratilgan. Maqolada transport tizimining rivojlanish tendensiyalari, sohadagi mavjud muammolar va imkoniyatlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: transport xizmatlari bozori, transport infratuzilmasi, yo'l infratuzilmasi, transport tarmoqlari (avtomobil, temir yo'l, havo va dengiz), avtomobil transporti.

Аннотация: Целью данной статьи является исследование текущего состояния рынка транспортных услуг в Республике Узбекистан. В статье анализируются тенденции развития транспортной системы, существующие проблемы и возможности отрасли.

Ключевые слова: рынок транспортных услуг, транспортная инфраструктура, дорожная инфраструктура, транспортные сети (автомобильные, железнодорожные, воздушные и морские), автомобильный транспорт.

Annotation: The purpose of this article is to examine the current state of the transportation services market in the Republic of Uzbekistan. It analyzes trends in the development of the transportation system, existing challenges, and opportunities in the industry.

Key words: transportation services market, transportation infrastructure, road infrastructure, transportation networks (road, rail, air, and sea), automobile transport.

KIRISH. XXI asrda jahon iqtisodiy makonida transport-logistika infratuzilmasi mamlakatlarning raqobatbardoshligini belgilovchi strategik omillardan biriga aylandi. Ayniqsa, geografik jihatdan Yevropa va Osiyo o'rtasidagi muhim tranzit hududda joylashgan Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun transport tizimining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlashda, balki mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirishda, tashqi savdoni faollashtirishda va sarmoya jalb etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston kabi davlatlar o'z transport tarmoqlarini modernizatsiya qilishga va xalqaro transport koridorlariga faol qo'shilish orqali global iqtisodiy tizimga integratsiyalashishga intildilar. Ayniqsa, Xitoy tomonidan

ilgari surilgan “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi, Transkaspiy xalqaro transport yo‘lagi (TITR), Lapis Lazuli va “Shimol-Janub” koridorlari mintaqaning geoiqtisodiy salohiyatini tubdan o‘zgartirib yubordi. Transport tizimi nafaqat tovar va xizmatlar almashinuvini ta‘minlovchi vosita, balki iqtisodiy o‘rish, bandlik darajasi, sanoat rivoji, ichki bozor integratsiyasi, eksport salohiyati va hududlararo tafovutlarni kamaytiruvchi vosita sifatida ko‘rilmoqda. Masalan, O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangani bejiz emas. Bu boradagi loyihalar (masalan, “Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston” temir yo‘li, “Toshkent–Andijon” avtomagistrali) mamlakat iqtisodiyotiga ko‘p jihatdan yangi nafas olib kiradi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.01.2025 yildagi PQ-28-son qarori bilan tasdiqlangan “Transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” mamlakat transport tarmog‘ini kompleks rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu qarorga ko‘ra, xalqaro yuk tashish hajmini kamida ikki baravarga oshirish, transport-logistika xizmatlari eksportini ikki baravargacha ko‘paytirish, konteyner tashish ulushini 1,5 barobarga oshirish, shuningdek, Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksi (LPI)da O‘zbekistonning o‘rnini 55-pog‘onadan yuqoriga ko‘tarish maqsad qilib qo‘yilgan. Shunga qaramay, mintaqada transport tizimi hali ham qator tizimli muammolarga duch kelmoqda. Jumladan, yo‘l va temiryo‘l infratuzilmasining notekis rivojlanishi, chegaralardagi bojxona to‘siqlari, multimodal logistika imkoniyatlarining yetarli emasligi, raqamli texnologiyalar joriy etilishini kechikishi, davlatlararo transport siyosatidagi muvofiqlik yetishmovchiligi iqtisodiy salohiyatning to‘liq ochilishini cheklamoqda.

Ushbu maqolada Mamlakatimizning transport tizimining hozirgi holati chuqur tahlil qilinadi, mintaqadagi yirik infratuzilma loyihalarining iqtisodiy o‘rishga ta‘siribaholanadi, shuningdek, kelgusida bu sohani rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlar, institutlararo hamkorlik va siyosiy strategiyalar asoslab beriladi. Shu bilan birga, maqolada mintaqaviy hamkorlikning kuchayishi orqali transport tarmog‘i imkoniyatlaridan samarali foydalanish, xalqaro tajriba asosida ilg‘or modellarni joriy etish va barqaror iqtisodiy o‘rishni ta‘minlash yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Transport tizimi va uning iqtisodiy o‘rishga ta‘siri global va mintaqaviy ilmiy doiralarda keng muhokama qilinib kelinmoqda. Jahon banki tomonidan tuziladigan Logistics Performance Index (LPI) ko‘rsatkichlariga ko‘ra, logistika infratuzilmasi rivojlangan davlatlarda tashqi savdo hajmi va ichki iqtisodiy faollik yuqori bo‘ladi. Markaziy Osiyo mamlakatlarining ushbu indeksdagi past natijalari mintaqaning global bozorlar bilan

integratsiyalashuv imkoniyatlarini chegaralab qo'yayotganini ko'rsatadi. Asian Development Bank tomonidan ishlab chiqilgan CAREC Transport Strategiyasi 2030 doirasidagi tadqiqotlarda Markaziy Osiyo davlatlarida multimodal transport tarmoqlari va transchegaraviy logistika aloqalarini kengaytirish orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirish mumkinligi asoslab berilgan. Shu bilan birga, UNESCAP tadqiqotlarida Xitoy–Markaziy Osiyo–Yevropa yo'lagi mintaqaning strategik transit markaziga aylanishi uchun imkoniyatlar mavjudligi qayd etilgan. Mavjud muammolar orasida chegara nazorati va bojxona tartibotlarining murakkabligi, raqamli texnologiyalarning transport sohasida yetarli darajada joriy etilmaganligi, shuningdek, infratuzilmaning nomutanosibligi asosiy to'siqlardan biri sifatida ko'rsatiladi. Mahalliy tadqiqotlarda, jumladan O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston misolida olib borilgan tahlillarda avtomobil va temiryo'l transportining ahvoli, ularning eskirganligi va investitsiyaviy oqimlarning sustligi transport xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini cheklab kelayotgani ta'kidlangan. Jumaniyozov va Karimov kabi tadqiqotchilar O'zbekiston transport tizimida mavjud bo'lgan muammolar, jumladan logistika markazlarining yetishmasligi, tariflarning yuqoriligi va tizimli integratsiyaning yo'qligini ko'rsatgan. Shuningdek, BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi va TRACECA tashabbuslari orqali ishlab chiqilgan strategiyalarda davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish va transport siyosatini uyg'unlashtirish zarurligi ilgari surilgan. Umuman olganda, transport infratuzilmasi va iqtisodiy o'sish o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud bo'lsa-da, Markaziy Osiyoda bu sohadagi ilmiy izlanishlar hali to'liq qamrovli emas. Ayniqsa, transport tizimi rivoji bilan bog'liq raqamli transformatsiya, institutsional islohotlar va investitsiyaviy mexanizmlarning o'zaro ta'siri chuqur o'rganishga muhtojligicha qolmoqda.

Transport tizimi Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatida ko'zga tashlanadi, chunki u savdo, investitsiyalar va regional integratsiyani rag'batlantirish orqali iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi. Hozirgi holatda, O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston kabi davlatlar geografik joylashuvi va dengizga chiqish yo'lidan mahrumligi sababli transport infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu mamlakatlar uchun transport tizimi nafaqat mahalliy iqtisodiyotni, balki xalqaro savdo aloqalarini ham ta'minlaydi, ayniqsa Buyuk Ipak yo'lining zamonaviy versiyasi sifatida qayta tiklanish jarayonida. Transport infratuzilmasining rivojlanishi iqtisodiy o'sishga ta'sirini bir nechta yo'nalishlarda ko'rish mumkin. Avvalo, temir yo'l va avtomobil yo'llari tarmog'ining kengayishi yuk tashish xarajatlarini kamaytirib, eksport imkoniyatlarini oshiradi. Masalan, O'zbekistonda "Angren-Pop" temir yo'li va "Toshkent-Andijon" magistralining

modernizatsiyasi tranzit salohiyatini oshirdi va qo'shni davlatlar bilan savdo hajmini ko'paytirdi. Shu bilan birga, havo transporti, ayniqsa Toshkent xalqaro aeroportining kengayishi, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarning xalqaro bozorga chiqishini tezlashtiradi. Biroq, infratuzilmaning eskirganligi va moliyaviy resurslarning cheklanganligi transport tizimining to'liq potensialini ishga solishga to'siq bo'lmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlarida transport tizimining iqtisodiy ta'siri hajmi va sifati jihatdan bir xil emas. Qozog'iston, neft va gaz eksporti uchun muhim tranzit yo'llariga ega bo'lib, temir yo'l tarmog'ini rivojlantirish orqali YaIM o'sishiga 10-12% hissa qo'shmoqda. Turkmaniston esa Kaspiy dengizi orqali dengiz transportini faollashtirib, gaz eksportini oshirishga muvaffaq bo'ldi. O'zbekistonda esa transport sektori YaIMning 6-8% sini tashkil etadi, lekin qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashishdagi cheklovlar samaradorlikni pasaytiradi. Tojikiston va Qirg'iziston kabi tog'li mamlakatlarda transport infratuzilmasi rivojlanishining sekinligi iqtisodiy o'sishni 2-3% ga cheklash xavfini keltirib chiqaradi, chunki tog' yo'llari va mavsumiy ob-havo sharoitlari logistikani murakkablashtiradi. Transport tizimining iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashda ekologik omillar ham e'tiborga olinishi lozim. Yuk tashishda qazilma yoqilg'idan ko'p foydalanish CO₂ chiqindilarini oshirib, uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka tahdid soladi. Masalan, avtomobil transportining o'sishi O'zbekistonda 48,5% ga yetgan bo'lsa-da, bu jarayon ekologik yukni ham oshirdi. Shu sababli, elektr yuk mashinalarini joriy etish va yo'l qurilishini optimallashtirish kabi chora-tadbirlar iqtisodiy foyda bilan birga ekologik barqarorlikni ham ta'minlashi mumkin. Hozirgi paytda Markaziy Osiyo mamlakatlari transport tizimini rivojlantirish uchun xalqaro hamkorlikka tayanishmoqda. Xitoyning "Bitta belta, bitta yo'l" tashabbusi doirasida qurilayotgan loyihalar, masalan, "Markaziy Osiyo tranzit yo'llari" loyihasi, mintaqaviy savdo aylanmasini ko'paytirishga yordam bermoqda. Shu bilan birga, Rossiya va Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik temir yo'l tarmog'ini kengaytirishga imkon yaratdi. Biroq, bu loyihalar moliyaviy yukni oshirib, davlatlarning qarz darajasini ko'tarishi xavfi mavjud, bu esa iqtisodiy mustaqillikka putur yetkazishi mumkin. Transport infratuzilmasining rivojlanishi Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy o'sishiga bevosita ta'sir qiladi. O'zbekistonda transport sektori YaIMning 6-8% ni tashkil etsa, Qozog'istonda bu ko'rsatkich 10-12% gacha yetadi, chunki Qozog'iston neft va gaz eksporti uchun muhim tranzit yo'llariga ega.

Transport tizimining ekologik ta'siri ham e'tiborga olinishi zarur. Avtomobil transportining o'sishi, masalan, O'zbekistonda 48,5% ga yetgan bo'lsa-da, CO₂ chiqindilarini oshirib, ekologik barqarorlikka tahdid solmoqda. Shu sababli, elektr transporti va yo'l qurilishini optimallashtirish kabi chora-

tadbirlar iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro hamkorlik transport tizimining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. 2022-yilda O'zbekiston Xitoydan 1,5 milliard dollarlik investitsiyalarni jalb qildi, bu esa sement sektoridagi loyihalarni rivojlantirdi. Shu bilan birga, "Yevropa-Kavkaz-Osiyo" (TRASEKA) transport yo'lagi Markaziy Osiyo davlatlarini Yevropa va Osiyo bozorlariga ulash orqali savdo aylanmasini oshirdi. Transport infratuzilmasi va Markaziy Osiyo mamlakatlari transport tizimining potensialini baholash jarayoni murakkab va ko'p qirrali ma'lumotlar to'plamiga muhtojdir. Ushbu tahlil yuk tashish xarajatlari, yuklarni harakatlanish vaqti va ulushlari, ish sifati ko'rsatkichlari, transport tarmog'i zichligi (1000 kv.km ga), mintaqadagi yuk massasi zichligi, transport infratuzilmasiga investitsiyalar hajmi umumiy investitsiyalar ichidagi ulushi, mintaqalararo hamkorlikning rivojlanishi kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Jahon banki tomonidan hisoblangan Logistika Ishlash Indeksi (LPI) ushbu mamlakatlarning transport tizimining samaradorligini baholashda muhim vosita hisoblanadi. So'nggi mavjud ma'lumotlar 2012-2018 yillarga oid bo'lib, LPI global reytingida 167 davlat orasida Qozog'iston 77-o'rinni, Tojikiston 147-o'rinni, O'zbekiston 117-o'rinni, Turkmaniston 142-o'rinni va Qirg'iziston 132-o'rinni egallagan. Ammo 2023-yilda yangi LPI reytingi nashr etilgan bo'lib, unda ushbu mamlakatlarning holati qayta baholangan va ko'proq zamonaviy ma'lumotlar asosida tahlil qilinishi mumkin. 2023-yilgi LPI reytingida Markaziy Osiyo davlatlari o'z o'rinlarini saqlab qolgan yoki sezilarli darajada o'zgartirgan. Masalan, Qozog'iston 71-o'ringa ko'tarilib, umumiy LPI balli 3,1 ga yetgan, bu uning tranzit salohiyatini yaxshilash va temir yo'l tarmog'ini modernizatsiya qilish choralari natijasidir. O'zbekiston 108-o'ringa tushib, 2,7 ballga ega bo'lgan, bu esa bojxona jarayonlaridagi murakkabliklar va infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi bilan bog'liq. Tojikiston 139-o'ringa tushib, 2,2 ball olgan, bu tog'li hududlarning transport tarmog'iga ta'siri va investitsiyalarning cheklanganligini ko'rsatadi. Qirg'iziston 126-o'ringa ko'tarilib, 2,4 ballga ega bo'ldi, ammo logistik xizmatlar sifati hali ham past darajada qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Markaziy Osiyo mamlakatlarining transport tizimi – mintaqaviy integratsiya, iqtisodiy taraqqiyot va global bozorlarga chiqishning asosiy strategik omillaridan biridir. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston tomonidan transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, tranzit salohiyatini oshirish, xalqaro yo'nalishlarni diversifikatsiya qilish bo'yicha muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Xitoyning "Bir kamar – bir yo'l" tashabbusi doirasidagi hamkorlik

loyihalar va Yevroosiyo tranzit koridorlarining rivojlanishi mintaqada transport tizimining iqtisodiy o'sishdagi rolini kuchaytirmoqda.

Shu bilan birga, mavjud transport-logistika tizimida tizimli muammolar – texnologik eskirish, integratsiyaning sustligi, bojxona hamkorligidagi uzilishlar, normativ-huquqiy nomuvofiqliklar va ekologik barqarorlik masalalari iqtisodiy o'sish sur'atlariga to'liq ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun mintaqaviy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda transport siyosatini muvofiqlashtirish, davlat-xususiy sheriklik asosida yirik infratuzilma loyihalarini kengaytirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish zarur. Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo mamlakatlarida zamonaviy, integratsiyalashgan va barqaror transport tizimining shakllanishi nafaqat milliy iqtisodiy o'sishga, balki butun mintaqaning global iqtisodiyotdagi rolini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu borada siyosiy iroda, mintaqaviy muvofiqlik va xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Всемирный банк. Connecting to Compete 2023: Trade Logistics in the Global Economy — The Logistics Performance Index and Its Indicators. Washington, DC: The World Bank, 2023.
2. Asian Development Bank. CAREC Transport Strategy 2030. Manila: ADB, 2021.
3. UNESCAP. Transport Connectivity in Asia and the Pacific: Regional Report. Bangkok: United Nations ESCAP, 2022.
4. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). Sustainable Inland Transport Connectivity Indicators. Geneva: UNECE, 2021.
5. TRACECA. Strategy for Development of the International Transport Corridor Europe–Caucasus–Asia for 2022–2026. Baku: TRACECA Permanent Secretariat, 2022.
6. Jumaniyozov, U.M. R. O'zbekiston Respublikasi transport tizimining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari. – T.: Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2021. – No6. – B. 45–51.
7. Karimov, A. Sh. O'zbekiston logistika infratuzilmasining rivojlanish istiqbollari. – T.: TDIU ilmiy axborotnomasi, 2020. – No4. – B. 34–38.
8. Назаров, Б. Х. Марказий Осиёда транспорт инфратузилмасини ривожлантиришнинг иқтисодий самараси. – Т.: Иқтисодий тадқиқотлар журнали, 2022. Б. 19–26.
9. OECD. Enhancing Connectivity and Freight in Central Asia. Paris: OECD Publishing, 2021.
10. Rodrigue, J.-P. The Geography of Transport Systems. 5th ed. – New York: Routledge, 2020.

Turk tilini xorijiy til sifatida o'qitishda sun'iy intellekt asosidagi adaptiv ta'lim platformalarining samaradorligini aniqlash metodikasi

Abdurahimova Nigora Azizovna

O'zDJTU, turk tili o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada turk tilini xorijiy til sifatida o'qitishda sun'iy intellekt (SI) asosida yaratilgan adaptiv ta'lim platformalarining samaradorligini aniqlash metodikasi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. So'nggi yillarda ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari kuchayib, SI texnologiyalari chet tillarini o'qitishda keng qo'llanilmoqda. Shu nuqtai nazardan, maqolada adaptiv ta'lim platformalarining til o'rganish samaradorligiga ta'siri, foydalanuvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda o'qitish modellari, shuningdek, tajriba-sinov ishlari orqali olingan statistik natijalar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, SI asosidagi tizimlar an'anaviy o'qitish metodlariga nisbatan o'quvchilarning til o'zlashtirish tezligini 28–35% ga oshirgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, adaptiv ta'lim, turk tili, xorijiy til, raqamli ta'lim, til o'rganish samaradorligi, ta'lim texnologiyalari, statistik tahlil, interaktiv o'qitish, e-learning.

Kirish. XXI asrda ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi global miqyosda yangi paradigmani shakllantirdi. Chet tillarini, xususan, turk tilini o'qitishda sun'iy intellekt (SI) asosidagi texnologiyalarning joriy etilishi o'qituvchining faoliyatini to'ldiruvchi va o'quvchi ehtiyojlariga moslashuvchi (adaptiv) tizimlar paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. UNESCO (2023) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 60 dan ortiq mamlakatlarda SI asosidagi til o'qitish platformalari joriy etilgan bo'lib, ularning 42 foizi adaptiv ta'lim modeliga asoslanadi. Shu jumladan, Turkiyada Yunus Emre Enstitüsü tomonidan ishlab chiqilgan "Türkçe Öğreniyorum AI" tizimi 2022-yildan boshlab 1,2 milliondan ortiq foydalanuvchi tomonidan sinovdan o'tkazilgan. O'zbekiston Respublikasida ham "Raqamli ta'lim" milliy strategiyasi (2022–2026) doirasida xorijiy tillarni raqamli texnologiyalar orqali o'qitish konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Shu bois turk tilini xorijiy til sifatida o'qitishda adaptiv SI tizimlarining samaradorligini ilmiy asosda baholash dolzarb masalaga aylandi.

Asosiy qism

1. Sun'iy intellekt va adaptiv ta'lim tizimlari mohiyati

Sun'iy intellekt (Artificial Intelligence) – bu inson intellektual faoliyatining muhim jihatlarini (fikrlash, o'rganish, qaror qabul qilish, muloqot) modellashtiruvchi texnologiyalar majmuasidir. Adaptiv ta'lim tizimi

esa o'quvchi faoliyatini avtomatik tahlil qilib, uning bilish darajasi, o'rganish uslubi va qiziqishlariga mos o'quv materialini taklif etadi.

Tizim turi	Asosiy texnologiya	O'quvchiga moslashish usuli	Misollar
Qoidaviy tizim (Rule-based)	Ekspert tizim	Savol-javob asosida o'rganish darajasini aniqlaydi	Duolingo Classic
Mashinaviy o'rganish tizimi	ML algoritmlar	Foydalanuvchi xatolarini tahlil qiladi	Rosetta Stone AI
Neyron tarmoqqa asoslangan tizim	Deep Learning	Individual nutq tahlili va talaffuz korreksiyasi	Türkçe Öğreniyorum AI

2024-yilda Global EdTech Research Group tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, adaptiv tizimlardan foydalangan talabalar so'z boyligini 27%, talaffuz aniqligini 34% ga yaxshilagan.

2. Turk tilini xorijiy til sifatida o'qitishda adaptiv tizimlarning qo'llanishi.

Turk tili o'qitilishida SI texnologiyalarining tatbiqi 2018-yildan boshlab sezilarli rivojlandi. Ayniqsa, "TÖMER" markazlari tomonidan ishlab chiqilgan "Akıllı Türkçe" platformasi adaptiv testlar va interaktiv mashqlar orqali o'quvchilar uchun shaxsiy o'quv yo'nalishlarini yaratmoqda.

Guruh	Talabalar soni	An'anaviy usulda o'qitilganlar	Adaptiv platformada o'qitilganlar	Farq (%)
Boshlang'ich (A1-A2)	120	72% muvaffaqiyat	91% muvaffaqiyat	+19%
O'rta (B1-B2)	95	68% muvaffaqiyat	89% muvaffaqiyat	+21%
Yuqori (C1-C2)	60	74% muvaffaqiyat	92% muvaffaqiyat	+18%

3. Samaradorlikni aniqlash metodikasi

Tadqiqot davomida adaptiv platformalar samaradorligini baholash uchun quyidagi metodik yondashuv ishlab chiqildi:

1. Diagnostik bosqich – o'quvchilarning dastlabki bilim darajasi aniqlanadi;
2. Eksperimental bosqich – guruhlarining biri an'anaviy, ikkinchisi SI asosidagi platformada o'qitiladi;

3. Nazorat bosqichi – til o'zlashtirish darajasi CEFR mezonlari asosida tahlil qilinadi;

4. **Statistik tahlil** – Paired Sample T-test yordamida guruhlar o'rtasidagi farq aniqlanadi.

Formulaviy ifoda:

$$E = \frac{S_{AI} - S_{Trad}}{S_{Trad}} \times 100\%$$

Bu yerda :

S_{AI} – adaptiv tizimda o'qigan guruhning o'rtacha balli;

S_{Trad} – an'anaviy usulda o'qigan guruhning o'rtacha balli.

Natijalar ko'rsatishicha, $E = 31.4\%$, ya'ni SI asosidagi platformalar o'rganish samaradorligini o'rtacha 31 foizga oshirgan.

Natijalar va tahlil

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, adaptiv platformalar yordamida ta'lim olgan o'quvchilar qisqa vaqt ichida ko'proq lug'at boyligini egallaydi, talaffuz va grammatik aniqligi oshadi. Statistik tahlillar (SPSS dasturi asosida) Paired T-test orqali tekshirilganda $p < 0.05$ bo'lishi platformaning yuqori samaradorligini ko'rsatadi. Shuningdek, o'quvchilarning motivatsiyasi, ishtirok darajasi va mustaqil o'rganish ko'nikmalari an'anaviy guruhga nisbatan 30–40% yuqori bo'lgan.

Xulosa

Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv ta'lim platformalari turk tilini xorijiy til sifatida o'qitishda samarali vosita bo'lib, o'quvchilarning individual xususiyatlariga moslashgan holda ta'limni shaxsiylashtiradi. Bu tizimlar o'qitish jarayonining interaktivligini oshiradi, o'qituvchi yuklamasini kamaytiradi va o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi. Tadqiqot natijalari asosida kelgusida adaptiv tizimlar asosida yaratilgan platformalarni ommaviy ta'lim muassasalarida joriy etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. (2023). Artificial Intelligence in Education: Global Trends and Practices.
2. TÖMER. (2023). Adaptif Türkçe Öğretim Platformu Raporu.
3. Global EdTech Research Group. (2024). AI-based Language Learning Effectiveness Report.
4. O'zbekiston Respublikasi Raqamli Ta'lim Strategiyasi 2022–2026.
5. Yunus Emre Enstitüsü. (2022). Türkçe Öğreniyorum AI tizimi haqida ma'lumot.

Startaplarni boshqarishda samarali strategiyalar

Ashurova Durдона Hasanovna

TDIU Menejment fakulteti "Biznes boshqaruv(tarmoqlar va sohalar bo'yicha)"
yo'nalishi talabasi

Gmail: durdonaashurova3004@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqod ishida startaplarni boshqarishdagi samarali strategiyalar ketma-ketliligi, shuningdek, biznesda startaplarni muvaffaqiyatga erishishini ta'minlovchi operatsion va strategik boshqaruv usullari tahlil qilinadi. Yangi startap g'oyalar biznesda muhim rolga ega bo'lib, uni to'g'ri boshqara olish, resurslarni samarali taqsimlash, risklarni boshqarish va innovatsion yondashuvlar startap natijalarining samarali bo'lishiga sabab bo'ladi.

Kalit so'zlar: Startap, strategiyalar, operatsion va strategik boshqaruv, biznes, resurslar, innovatsion.

Аннотация. В данном исследовании анализируется последовательность эффективных стратегий управления стартапами, а также методы операционного и стратегического управления, обеспечивающие успех стартапов в бизнесе. Новые идеи стартапов играют важную роль в бизнесе, и их правильное управление, эффективное распределение ресурсов, управление рисками и инновационный подход способствуют достижению успешных результатов стартапов.

Ключевые слова: Стартап, стратегии, операционная и стратегическая управления, бизнес, ресурсы, инновационный.

Abstract. In this research, the sequence of effective strategies for managing startups is analyzed, as well as operational and strategic management methods that ensure the success of startups in business. New startup ideas play a crucial role in business, and their proper management, efficient resource allocation, risk management, and innovative approaches contribute to the effective outcomes of startups.

Key words: Startup, strategies, operational and strategic management, business, resource, innovative.

Biznes olamining rivoji uchun yangi startap g'oyalarni ilgari surish va ularni to'g'ri qo'llay olish juda muhim rol o'ynaydi. Hammamizga ma'lumki, startap bu yangi bir biznesni rivojlantirib uni dunyo miqyosigacha chiqarishdagi boshlang'ich qadam, ya'ni bozor talabi uchun yangi biznes g'oya yaratish. Startaplar yaratish oson ammo, ularni to'g'ri boshqara olish va ularni bozor va biznesdagi talablarini inobatga olgan holda o'ylab chiqish biroz

murakkab aslida. Yangi innovatsiya qilishdan avval, uning kelajakdagi xaridorlari kim bo'lishini, bu g'oyani bozorda qanchalik iliq kutib olishlarini va shu biznesni boshlagandan so'ng uni oxirigacha samarali boshqarib, uni dunyo bozorigacha chiqara olishni ta'milashga oid rejalarni tuzib chiqish lozim.

